

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 234 (1023), 2023-yil 10-noyabr, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTI SAMMITI: XALQARO VA MINTAQAVIY AHAMIYATGA MOLIK DOLZARB MASALALAR YUZASIDAN FIKR ALMASHILDI

9-noyabr kuni Toshkent shahrida “Hamkorlikda iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot sari” shiori ostida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammiti bo‘lib o‘tdi.



IQTISODIY HAMKORLIK
TASHKILOTI 16-SAMMITI
8-9 Noyabr



16th ECONOMIC COOPERATION
ORGANIZATION SUMMIT
8-9 November

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tgan tadbirida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Eron Islom Respublikasi

Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Anvar ul-Haq Kakar, Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Alihan Smailov va IHT bosh kotibi Xusrav Nozirov ishtirok etdi.

O‘zbekiston Prezidenti sammitni ochar ekan, ushbu muhim tadbirdagi ishtiroki uchun oliy martabali mehmonlarga samimiy minnatdorlik bildirdi,

va o‘xshash qadriyatlar chambarchas bog‘lab turishi qayd etildi. Davlatimiz rahbari aytganidek, yarim milliard aholi yashaydigan IHT makoni

2021-yilgi Ashxobod sammitida ilgari surilgan taklif va tashabbuslar izchil amalga oshirilayotgani ta’kidlandi.

Jumladan, tashkilot faoliyatini isloh qilish va faoliyati samaradorligini oshirish, xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Yaqinda transport vazirlarining Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi, mintaqaviy elektr energiyasi bozori hamda Boku shahrida Toza energiya markazi tashkil etilmoqda. Ekologiya sohasida yuqori darajadagi muloqot platformasi tuzildi, turoperatorlar tarmog‘i yaratildi va Xavfsiz turizmni rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Prezidenti a’zo davlatlar o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlikni kengaytirish uchun hali ishga solinmagan katta salohiyat mavjudligini ta’kidladi. Masalan, o‘tgan yili mamlakatlarning o‘rtasidagi savdo ko‘rsatkichi 85 milliard dollarni tashkil etdi, bu ularning umumiy tashqi savdosining atigi 8 foizidir. Imtiyozli savdo bitimini tuzish bo‘yicha ko‘p yillik urinishlar kutilgan samarani bermayapti. To‘siqsiz savdoni shakllantirish yo‘lida hali-hamon ko‘plab cheklov va muammolar saqlanib qolmoqda.

IHT doirasidagi hamkorlikka yangi sur‘at bag‘ishlash maqsadida O‘zbekiston Prezidenti “Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari — 2035” konseptual hujjatini ishlab chiqishni taklif etdi.

Ushbu muhim hujjatda o‘zaro savdoni rag‘batlantirish, transport-kommunikatsiyaviy bog‘liqlikni kuchaytirish, sanoat kooperatsiyasini faollashtirish, energetika xavfsizligini ta’minlash, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, turizm va madaniy-

fitosanitariya va veterinariya tartib-qoidalarini raqamlashtirish, elektron savdoni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan Savdoni soddalashtirish to‘g‘risidagi bitimni qabul qilishga chaqirdi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, bu chora-tadbirlar orqali 2035-yilga borib o‘zaro savdo hajmlarini kamida ikki barobar ko‘paytirish mumkin.

A’zo davlatlarning aksariyati dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega emasligini qayd etib, O‘zbekiston Prezidenti transqit’aviy transport yo‘llari salohiyatidan to‘liq foydalanish, “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li va Transafg‘on multimodal yo‘li loyihalarini ishga tushirish muhimligini ko‘rsatib o‘tdi.

Toshkentda 2-noyabrda bo‘lib o‘tgan transport vazirlarining yig‘ilishida “O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya” transport yo‘lagini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan hujjatga boshqa a’zolarni ham qo‘shilishga, o‘zaro tarif va yig‘imlarni maqbullashtirishga chaqirdi.

Yuk tashish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni raqamlashtirish va bunday zamonaviy tizimlarni samarali muvofiqlashtirish maqsadida Toshkent shahrida Raqamli transport va bojxona ofisini tashkil etish tashabbusi bildirildi.

O‘zbekiston rahbari o‘zaro investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, ularni himoya qilish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish bo‘yicha Qo‘shma harakatlar dasturini ishlab chiqish hamda hududlararo sanoat ko‘rgazmasini tashkil etib, uning dastlabki tadbirini 2024-yilda yurtimizda o‘tkazish muhimligini qayd etdi.



Prezidenti Ibrohim Raisiy, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov,



Kun tartibiga muvofiq, IHT doirasida ko‘p qirrali hamkorlik istiqbollari va uni yangi bosqichga olib chiqish muhokama qilindi, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan atroflicha fikr almashildi.



bu har tomonlama va o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga bo‘lgan umumiy intilishlarning tasdig‘i ekanini ta’kidladi. Tashkilot a’zolarini musharak tarix va muqaddas islom dinimiz, boy madaniyat



savdo-iqtisodiy, sanoat, investitsiya va innovatsiyalar, transport sohasidagi aloqalarni rivojlantirishda katta salohiyatga ega. Keyingi yillarda tashkilot doirasidagi hamkorlik jadal rivojlanayotgani,



gumanitar almashinuv sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish kabi asosiy yo‘nalishlarga e’tibor qaratish lozim. Davlatimiz rahbari tovar va xizmatlar savdosini yengillashtirish, texnik va notarif to‘siqlarni bartaraf etish, bojxona,

O‘zbekiston tashkilotning Savdo va taraqqiyot banki bilan sheriklik aloqalarini kengaytirish tarafdori ekanini ham ta’kidlandi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTINING O‘N OLTINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Hurmatli Bosh kotibi! Anjuman ishtirokchilari! Avvalambor, Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammitida sizlar bilan uchrashib turganimdan behad xursandman.

O‘zbekiston zaminiga xush kelibsiz! Bugungi oliy darajadagi uchrashuvimiz bizning umumiy taraqqiyot yo‘lida ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirishga bo‘lgan qat’iy intilishimizning yaqqol dalilidir.

Bugun ko‘z o‘ngimizda dunyo siyosiy arxitekturasini tom ma’nodda o‘zgarimoqda va global qayta qurilishi sodir bo‘lmoqda.

Bu murakkab jarayonlarda o‘zining katta o‘rniga ega bo‘lgan Tashkilotimiz davlatlari birgalikda hamjihat bo‘lib harakat qilishi, vujudga kelayotgan xavf-xatarlarga qarshi samarali yechimlar topishi muhimdir.

“Hamkorlikda iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot sari” shiori ostida o‘tayotgan sammitimizda siz, aziz hamkasblarim bilan ko‘p tomonlama aloqalarimizni yangi bosqichga olib chiqish va eng dolzarb masalalar bo‘yicha batafsil fikr almashamiz.

Barchangizga bugungi tadbirimizda ishtirok etayotganingiz va o‘zaro manfaatli munosabatlarning ravnaqiga qo‘shayotgan ulkan hissangiz uchun alohida tashakkur bildiraman.

Fursatdan foydalanib, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti hurmatli Ilhom Haydarovich Aliyevni Tashkilotimizdagi muvaffaqiyatli raisligi bilan samimiy tabriklayman.

Ozarbayjon raisligi doirasida “Yashil o‘tish va o‘zaro bog‘liqlik yili”da o‘tkazilgan qator tadbir va tashabbuslar amaliy sherikligimizni kengaytirishga salmoqli hissa qo‘shdi.

Kelgusi yilda Tashkilotimizga raislik qiladigan Eron Islom Respublikasining mintaqaviy savdoni rivojlantirish orqali hamkorlikni yanada chuqurlashtirish borasidagi reja va maqsadlarini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari! Bundan roppa-rosa ikki yil oldin Ashxobod shahrida Tashkilotimizning o‘n beshinchi sammitini muvaffaqiyatli o‘tkazgan edik. Turkmanistondagi yig‘ilishimizda qabul qilingan muhim qarorlar tuzilmamiz faoliyatiga yangi nafas olib kirdi.

Tashkilotni isloh qilish va uning samaradorligini oshirish, xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, transport vazirlarimiz qabul qilgan Toshkent deklaratsiyasining muhim ahamiyatini alohida qayd etmoqchiman.

Boku shahrida Toza energiya markazini tashkil etish va mintaqaviy elektr energiyasi bozorini yaratish masalasi bo‘yicha amaliy ishlar qilinmoqda. Ekologiya sohasida yuqori darajadagi muloqot platformasi tuzildi. Turizm hamkorligini yanada kengaytirish maqsadida birinchi bor Tashkilot turoperatorlari tarmog‘i yaratildi va Xavfsiz turizmni rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Qadri delegatsiyalar rahbarlari!

Tashkilotimiz a’zolarini musharak tarix va muqaddas islom dinimiz, boy madaniyat va o‘xshash qadriyatlar chambarchas bog‘lab turadi.

Yarim milliard aholi yashaydigan keng mintaqamiz savdo-iqtisodiy, sanoat, investitsiya va innovatsiyalar, transport sohasidagi aloqalarni rivojlantirishda katta salohiyatga ega.

Davomi 2-betda

ITALIYA RESPUBLIKASI PREZIDENTI SERJO MATTARELLA O‘ZBEKISTONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarella 9-noyabr kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Toshkent xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Tashrif doirasida oliy darajadagi muzokaralar bo‘lib o‘tdi.

Kun tartibidan O‘zbekiston bilan Italiya o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirish va ustuvor

yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

O‘zbekiston Prezidentining joriy yil iyun oyidagi Italiyaga tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Xalqaro siyosat va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Sammit yakunida qator hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolaniishi kutilmoqda.

Shuningdek, Prezident Serjo Mattarella Samarqand va Xiva shaharlariga tashrif buyurib, O‘zbekistonning madaniy-tarixiy merosi bilan tani-shadi.

O‘ZA

QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 9-noyabr kuni paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash va hosildorlikni oshirish choratadbirlari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Dunyodagi bugungi ziddiyatlar, savdodagi cheklovlar iqtisodiyotda o‘z aksini topmay qolmaydi. Jumladan, bu omillar oziq-ovqat va to‘qimachilik eksportiga salbiy ta’sir

qildi. Bu vaziyatda eng to‘g‘ri yo‘l — qishloq xo‘jaligida hosildorlikni keskin oshirish hisobiga tannarxni kamaytirish, chuqur qayta ishlashga va qo‘shilgan qiymat yaratishga ko‘proq

investitsiya jalb qilib, eksportni ko‘paytirishdir.

Shu bois, yig‘ilishda qishloq xo‘jaligini yangicha yondashuvlar, tashkiliy va moliyaviy vositalar orqali qo‘llab-quvvatlash choralarini muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari har bir tarmoqqa alohida to‘xtalib, yangi taklif va tashabbuslarni aytdi.

Davomi 2-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTINING O‘N OLTINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Tahillarga ko‘ra, jahondagi global inqirozga qarabmasdan, bizning iqtisodiyotimiz barqaror o‘shir sur‘atlarini namoyon etmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ortga qaytmas islohotlar jadal amalga oshirilayotganidan barchangiz yaxshi xabardorsiz. Biz iqtisodiyotni liberallashtirish, xalqimizning turmush darajasi va farovonligini yanada yuksaltirishga asosiy e‘tiborni qaratyapmiz.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi bir yarim barobar ko‘paydi. 2030-yilga qadar ushbu iqtisodiy ko‘rsatkichni yana ikki barobarga oshirishni mo‘ljallayapmiz. Bunga, avvalo, “yashil” iqtisodiyot va zamonaviy infratuzilmani barpo etish, xususiyl sektorini rag‘batlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish hisobidan erinish ko‘zda tutilmoqda.

Bu borada xalqaro maydonda o‘z ovozi va nufuziga ega Tashkilotimizning barcha a‘zolari bilan samarali ishlashga tayyormiz. Zero, yaqin va yaxshi qo‘shni bo‘lgan mamlakatlarning iqtisodiyotlari bir-birini to‘ldira oladi. Umumiy savdo-transport koridorlari va energetika tarmoqlari esa davlatlarimizni uzviy bog‘laydi. Biz yangi “o‘shish nuqtalari”ni birgalikda izlab topish orqali kelgusida salmoqli natijalarga albatta erishamiz.

Hurmatli yig‘ilish ishtirokchilari!

O‘zbekiston Tashkilotimizning asosiy hujjati bo‘lgan “Istiqbolar — 2025” ijrosini sarhisob qilishni qo‘llab-quvvatlaydi. Hozircha ishga solinmayotgan katta imkoniyatlar chiqur tahlili asosida Tashkilotimizning kelajakdagi ustuvor soha va tarmoqlarini belgilab beruvchi **“Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari — 2035”** konseptual hujjatini ishlab chiqish vaqti keldi, deb hisoblaymiz.

Ushbu muhim hujjatda quyidagi asosiy yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish lozim.

Birinchidan, o‘zaro savdoni rag‘batlantirish. O‘tgan yili mamlakatlarimiz o‘rtasidagi savdo ko‘rsatkichi 85 milliard dollarni tashkil etdi. Bu Tashkilotga a‘zo davlatlar umumiy tashqi savdosining atigi 8 foizi demakdir. Afssuski, imtiyozli savdo bitimini tuzish bo‘yicha ko‘p yillik urinishlar kutilgan samarani bermayapti. To‘siqsiz savdoni shakllantirish yo‘lida hail-hamon ko‘plab cheklov va muammolar saqlanib qolmoqda.

Bu holatlarni ochiq tan olishimiz va ularni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun vaziyatga yangicha qarash bilan yondashish kerak. Shu munosabat bilan ekspertlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasida savdoni soddalashtirish to‘g‘risidagi bitimni qabul qilishga chaqiramiz.

Ushbu hujjatda tovar va xizmatlar savdosini yengillashtirish, texnik va notarif to‘lo‘siqlarni bartaraf etish, bo‘xona, fitosanitariya va veterinariya tartib-qoidalarini raqamlashtirish, elektron savdoni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, bu chora-tadbirlar orqali 2035-yilga borib o‘zaro savdo hajmlarini kamida ikki barobar ko‘paytirish mumkin.

Ikkinchidan, o‘zaro transport-kommunikatsiya bog‘liqligini kuchaytirish. A‘zo davlatlarning aksariyati dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega emas. Shu bilan birga, Osiyo-Tinch okeani, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa mintaqalarining yirik bozorlari bilan bog‘laydigan va bizning hududlarimiz orqali o‘tadigan transkontinental transport yo‘laklari salohiyatidan to‘liq foydalanishimiz zarur.

Kelgusida “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” va Transafg‘on multimodal yo‘llarining ishga tushirilishi barcha a‘zo davlatlar manfaatlariga mos keladi.

Toshkentda 2-noyabrda bo‘lib o‘tgan transport vazirlarining yig‘ilishida “O‘zbekiston —

Turkmaniston — Eron — Turkiya” transport yo‘lagini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan hujjatga boshqa a‘zolari ham qo‘shilishga, o‘zaro tarif va yig‘imlarni maqbulashtirishga chaqiramiz.

Ta‘kidlash joziki, O‘zbekiston Ozarbayjon va Turkiya bilan uy tashish hujjatlarini raqamlashtirdi, shuningdek, boshqa davlatlar bilan bunday loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bu kabi zamonaviy tizimlarni keng joriy qilish hamda samarali muvofiqlashtirish uchun Toshkent shahrida Tashkilotning Raqamli transport va bo‘xona ofisini tashkil etish tashabbusini bildiraman.

Uchinchidan, sanoat kooperatsiyasi hamda ishbiarmonlik aloqalarini faollashtirish, industrial xablarni shakllantirish.

Biz o‘zaro investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, ularni himoya qilish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish bo‘yicha Qo‘shma harakatlar dasturini ishlab chiqib, Tashkilotimiz Kotibiyatiga taqdim etdik. Mazkur hujjatda kimyo, energetika, geologiya, to‘qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika va qurilish sohalarida yangi qo‘shma loyihalarni ilgari surish maqsad qilib qo‘yilgan. Bu ezgu yo‘lda Tashkilotning Savdo va taraqqiyot banki bilan sheriklik aloqalarini kengaytirish tarafdorimiz.

Kecha Toshkentda o‘tgan Savdo-sanoat palatalari va ko‘plab kompaniyalarimiz rahbarlar ishtirokidagi beshinchi biznes-forum xususiy sektorda katta salohiyatga ega ekanimizni yaqqol ko‘rsatdi. Biz Tashkilotimiz doirasida hududlararo sanoat ko‘rgazmasini tashkil etish va uning dastlabki tadbirini 2024-yilda yurtimizda o‘tkazish taklifini ilgari suramiz.

To‘rtinchidan, energetika xavfsizligini kafolatli ta‘minlash. Milliy energetika strategiyalarini uyg‘unlashtirish, mintaqalararo energiya resurslarini uzatish tarmoqlarini rivojlantirish, “yashil” energetika texnologiyalarini keng joriy etishning ahamiyati oshmoqda.

Biz Tashkilotning energetika sohasida hamkorlik strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish borasida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqdamiz. 2030-yilgacha 25 gigavatt quvvatdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratishni va bilanimizda ularning ulushini 40 foizga yetkazishni maqsad qilganmiz. Shu yilning o‘zida 2 gigavatt quvvatdagi yirik shamol va quyosh elektr stansiyalarini ishga tushiryapmiz. Shuningdek, “yashil vorodor” ishlab chiqarish sohasida ham ilk qadamlarni qo‘ymoqdamiz. Ushbu yo‘nalishlarda barcha davlatlar bilan ochiq muloqot va tajriba almashishga tayyormiz.

Hamkorlik masalalarini batafsil muhokama qilish va ishlarni tizimli asosda olib borish uchun Tashkilotimiz doirasida alohida Energetika vazirlari kengashini ta‘sis etishni taklif etamiz.

Beshinchidan, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurash va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha aloqalarni jadallashtirish. Hozirgi vaqtda bizning davlatlarimiz bu o‘tkir muammolarning og‘ir oqibatlariga duch kelmoqda. Muzliklarning erishi, suv resurslari taqchilligi, cho‘llanish, chang bo‘ronlari, tuproq yemirilishi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi jarayonlar qattiq xavotir uyg‘otmoqda.

Tuzilamiz doirasida Ekologiya masalalari bo‘yicha yuqori darajali platforma yaratish borasida g‘oyamizni qo‘llab-quvvatlaganingiz uchun tashakkur izhor etaman. Uning birinchi anjumanini 2024-yil Samarqand iqlim forumi doirasida tashkil etishga tayyormiz.

Shuningdek, kelgusi haftada yurtimizda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Cho‘llanishga qarshi kurashish konvensiyasi bajarilishini ko‘rib chiqish bo‘yicha qo‘mita yig‘ilishida vakillaringizni faol ishtirok etishga chorlaymiz. Hozirgi vaqtda tobora jiddiy muammoga

aylanib borayotgan qum-chang bo‘ronlariga qarshi kurashish maqsadida Samarqand deklaratsiyasini qo‘llab-quvvatlashga chaqiramiz.

Oltinchidan, turizm sohasida hamkorlikni kuchaytirish. Yaqinda 140 dan ortiq davlatlar ishtirokida Samarqandda bo‘lib o‘tgan Butun-jahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasi mintaqamiz sayyohlik salohiyatiga butun dunyo e‘tiborini jalb etish borasida tarixiy voqea bo‘ldi.

Bugungi kunda Tashkilot makonida UNESCOning 90 ga yaqin Butunjahon merosi obyektlari joylashgan bo‘lib, mamlakatlarimizga har yili salkam 80 million xorijiy sayyohlar tashrif buyurmoqda.

Transchegaraviy yo‘nalishlar tobora ommalashayotganini hisobga olib, qo‘shma turistik marshrutlarni joriy etish hamda “lpak yo‘li” sayyohlik brendi ostida umumiy sayyohlik dasturlarini ko‘paytirishni taklif etaman.

Tashkilotimiz Kotibiyati huzurida a‘zo mamlakatlarning turizm ma‘muriyatlari va yetakchi ekspertlardan iborat alohida Turizm bo‘yicha maslahat qo‘mitasini tashkil etish taklifini bildirmoqchiman. Uning ilk uchrashuvini kelgusi yili Tashkilotimizning turizm poytaxti deb e‘lon qilingan Shahrisabz shahrida o‘tkazishga tayyormiz.

Shuningdek, a‘zo davlatlarni Samarqandda ochilgan Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasi imkoniyatlaridan unumli foydalanishga chaqiramiz.

Yettinchidan, madaniy-gumanitar hamkorlikni chuqurlashtirish orqali do‘st xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish. Har yili mamlakatlarning navbat bilan Madaniyat, san‘at va kino haftaliklarini o‘tkazib borish, yoshlarning ijodiy festivallari va innovatsion hamkorlik platformasini yo‘lga qo‘yish, fundamental ilmiy yo‘nalishlarda o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish aloqalarimiz rivojiga kuchi turki bag‘ishlaydi.

Hurmatli sammit qatnashchilari! Global tinchlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotgan Yaqin Sharqdagi Falastin — Isroil urushi barchamizda katta tashvish uyg‘otmoqda. Ming afsuski, bu qonli nizo oqibatida avvalo, tinch aholi vakillari, ayriqsa, ayollar, bolalar va keksalar ko‘plab qurbon bo‘lmoqda. Urushning mintaqabo‘ylab yayilib ketish xavfi tobora real tus olmoqda.

Qarama-qarshilikning keng ko‘lamli nizoga aylanib ketishiga aslo yo‘l qo‘ylmaydi. Biz tomonlarni zudlik bilan harbiy harakatlarni to‘xtatishga, tinch muzokaralarni boshlash, oqilona murosaga kelishga chaqiramiz.

Falastin xalqi Birlashgan Millatlar Tashkiloti rezolyutsiyalari bilan tasdiqlangan huquqqa, ya‘ni o‘zining mustaqil davlatini barpo etish huquqiga ega, degan qat‘iy pozitsiyamizni yana bir bor bildiramiz.

Shuningdek, bugungi sammit Tashkilotimiz a‘zolaridan biri bo‘lgan Afg‘oniston ishtirokiz o‘tayotganiga diqqatigizni qaratmoqchiman.

Asrlar davomida bizga yon qo‘shni bo‘lgan ko‘pmillatli Afg‘oniston xalqini bugungi murakkab muammolari qarshisida yolg‘iz qoldirib bo‘lmaydi. Ushbu mamlakatni mintaqaviy integratsiya jarayonlariga faol jalb etish barqaror taraqqiyotimizning ajralmas va zaruriy shartidir.

Barchangizni afg‘on xalqiga gumanitar yordam ko‘rsatishni ko‘paytirishga, ushbu mamlakatdagi o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni jamoaviy mas‘uliyat va maqbul mexanizmlar asosida hal etishga chaqiramiz.

Hurmatli hamkasblar! Tuzilamizning yukunida alohida ta‘kidlamoqchiman, bugungi tarixiy sammit va uning natijalari Tashkilotimizni samarali va ta‘sirchan tuzilмага aylantirishga, ko‘pqirrali sherikligimizni yangi marralarga olib chiqishiga ishonaman.

E‘tiboringiz uchun rahmat.

IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTI SAMMITI: XALQARO VA MINTAQAVIY AHAMIYATGA MOLIK DOLZARB MASALALAR YUZASIDAN FIKR ALMASHILDI

Boshlanishi 1-betda

Energetika xavfsizligini ta‘minlash doirasida milliy energetika strategiyalarini uyg‘unlashtirish, mintaqalararo energiya resurslarini uzatish tarmoqlarini rivojlantirish, “yashil” energetika texnologiyalarini keng joriy etishning ahamiyati oshib borayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Sohada tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida IHT Energetika vazirlari kengashini ta‘sis etish taklif qilindi.

Iqlim bilan bog‘liq xatarlar ortib borayotgani munosabati bilan O‘zbekiston Prezidenti iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini qayd etdi. 2024-yilda bo‘ljak Samarqand iqlim forumi doirasida Ekologiya masalalari bo‘yicha yuqori darajali platformaning birinchi anjumanini o‘tkazish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari tashkilotga a‘zo mamlakatlarning vakillarini kelgusi haftada yurtimizda bo‘ladigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Cho‘llanishga qarshi kurashish konvensiyasi bajarilishini ko‘rib chiqish bo‘yicha qo‘mita yig‘ilishida faol ishtirok etishga chorladi hamda qum-chang bo‘ronlariga qarshi kurashish maqsadida Samarqand deklaratsiyasini qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi.

Turizm sohasida hamkorlik qilish uchun ulkan salohiyatni va transchegaraviy yo‘nalishlar tobora ommalashayotganini hisobga olib, qo‘shma turistik marshrutlarni joriy etish hamda “lpak yo‘li” sayyohlik brendi ostida umumiy sayyohlik dasturlarini ko‘paytirish taklif etildi.

Prezidentimiz IHT Kotibiyati huzurida a‘zo mamlakatlarning turizm ma‘muriyatlari va yetakchi ekspertlardan iborat Turizm bo‘yicha maslahat qo‘mitasini tashkil etish hamda uning ilk uchrashuvini tashkilotning turizm poytaxti deb e‘lon qilingan Shahrisabz shahrida o‘tkazish taklifini bildirdi.

IHT mamlakatlari xalqlarini yanada yaqinlashtirishda madaniy-gumanitar hamkorlikni chuqurlashtirishning ahamiyatini qayd etib, O‘zbekiston Prezidenti har yili madaniyat, san‘at va kino haftaliklarini o‘tkazib borish, yoshlarning ijodiy festivallari va innovatsion hamkorlik platformasini yo‘lga qo‘yish, fundamental ilmiy yo‘nalishlarda o‘zaro hamkorlikni kuchaytirishni taklif qildi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida o‘tkir xalqaro va mintaqaviy muammolarga, shu jumladan, Yaqin Sharq va Afg‘onistondagi vaziyatga ham to‘xtalib o‘tdi. G‘azvo sektoridagi harbiy harakatlarni zudlik bilan to‘xtatish, tinchlik muzokaralarini boshlash va oqilona murosaga kelishga chaqirdi. Falastin xalqi BMT rezolyutsiyalari bilan tasdiqlangan o‘zining mustaqil davlatini barpo etish huquqi borasidagi qat‘iy pozitsiyasini yana bir bor bildirdi.

O‘zbekiston Prezidenti afg‘on xalqiga gumanitar yordam ko‘rsatishni ko‘paytirishga, ushbu mamlakatdagi o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni jamoaviy mas‘uliyat va maqbul mexanizmlar asosida hal etishga chaqirdi. Ta‘kidlanganidek, ushbu mamlakatni mintaqaviy

viy integratsiya jarayonlariga faol jalb etish barqaror taraqqiyotimizning ajralmas va zaruriy shartidir.

Sammitda Ozarbayjon, Eron, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston, Pokiston, Qozog‘iston delegatsiyalari rahbarlari hamda IHT bosh kotibi Xusrav Noziriy ham so‘zga chiqdi.

Kun tartibiga muvofiq, O‘zbekiston Prezidenti sammit raisi sifatida tashkilotning ilm-fandagi muvaffaqiyatlar uchun mukofoti g‘olillarini e‘lon qildi. Har bir mamlakattan bir nafar vakil mukofotga sazovor bo‘ldi.

Tadbir yakunida Toshkent kommunikasi qabul qilindi.

Tashkilotga raislik Eronga o‘tdi, navbatdagi sammit Ozarbayjonda o‘tkazilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammiti tadbirlari doirasida Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiy, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomal Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev va Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Ailixan Smailov bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiy bilan uchrashuvda O‘zbekiston — Eron munosabatlari yanada mustahkamlash, savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar va transport sohalarida amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

O‘zaro muloqotlar faol davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Ikki tomonlama savdoda o‘shish sur‘ati saqlanib qolmoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kooperatsiya loyihalari birgalikda amalga oshirilmoqda.

Ilgari oliy darajada erishilgan kelishuvlarni to‘liq ro‘yobga chiqarish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Sanoat kooperatsiyasi va mahalliyashtirish, qishloq xo‘jaligi, logistika o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish uchun imkoniyatlar mavjudligi ta‘kidlandi.

O‘zbekiston va Eron rahbarlari madaniy-gumanitar va ilm-fan sohasidagi almashinuvlarni rivojlantirish muhimligini ko‘rsatib o‘tdilar.

Shuningdek, mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar, shu jumladan, Afg‘onistondagi bugungi vaziyat nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqildi.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomal Rahmon bilan uchrashuvda ikki mamlakat o‘rtasidagi yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va itifoqchilik munosabatlari yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

O‘zaro savdoni ko‘paytirish, mashinasozlik, energetika, elektrotexnika, to‘qimachilik va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari ilgari surish bo‘yicha, shu jumladan, Hukumatlararo komissiya faoliyati doirasida muvofiqlashtirilgan ishlarni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Hududlar o‘rtasidagi ishbiarmonlik aloqalari va madaniy-gumanitar almashi-

nuvllarni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston va Tojikiston yetakchilari bo‘ljak tadbirlar rejasini ham ko‘rib chiqdilar.

Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov suhbat avvalida O‘zbekiston yetakchisi Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbangul Berdimuhamedovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalari hamda oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi batafsil ko‘rib chiqildi.

Tomonlar O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik va chuqurlashtirilgan strategik sheriklik izchil rivojlanib, mustahkamlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Savdo, sanoat, energetika, suv xo‘jaligi, transport va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlik kengaymoqda.

Hududlararo va madaniy-gumanitar aloqalar faol. Joriy yil oktabr oyida Turkmaniston va O‘zbekiston madaniyat kunlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Ikki mamlakat Prezidentlari mintaqaviy kun tartibi va ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasidagi hamkorlik masalalarini ko‘rib chiqdilar.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan uchrashuvda O‘zbekiston — Ozarbayjon do‘stlik va strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Muntazam o‘tkazib kelinayotgan oliy darajadagi muloqotlarda erishilgan kelishuvlarning natijalari katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari o‘smoqda, avtomobil, elektrotexnika, to‘qimachilik sanoatida, energetika tarmog‘ida, qishloq xo‘jaligi, logistika va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda muhim kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Madaniy-gumanitar tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.

O‘zbekiston va Ozarbayjon rahbarlari amaliy hamkorlik dastur va loyihalarni ilgari surish borasida birgalikdagi ishlarni jadal davom ettirish muhimligini ta‘kidladilar.

Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Ailixan Smailov uchrashuv avvalida O‘zbekiston yetakchisiga Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi strategik sheriklik va itifoqchilik munosabatlari izchil rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Oliy darajada erishilgan, shu jumladan, tovar ayirboshlashni oshirish, sanoat kooperatsiyasi va logistika loyihalari ilgari surish borasidagi kelishuvlarning to‘liq amalga oshirilishiga alohida e‘tibor qaratildi.

Bu borada qo‘shma Hukumatlararo komissiyaning samarali ishini davom ettirish muhim ekani ta‘kidlandi.

O‘ZA**Boshlanishi 1-betda**

Tahillarga ko‘ra, bu yil 41 ta paxta-to‘qimachilik klasterida hosildorlik 40 sentnerdan oshgan bo‘lsa, 9 tasida 30 sentnerdan kam bo‘lgan. Hosildorlik pastligi va tannarx yuqoriligi oqibatida Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlarida rentabellik 10-11 foizdan oshmagan.

Sharoit va izlanish bo‘lsa, yaxshi tajribalar ham bor. Masalan, Navoiy viloyatidagi “Navbahor” klasteri xorijdan olib kelgan yangi paxta navlari 70 sentnerdan ortiq hosil beryapti. Uning tannarxi, deylik, Jizzaxdagiga nisbatan qariyb ikki barobar arzonaga aylanyapti.

Shu bois, paxta urug‘chilik bo‘yicha yangicha yondashuvlar ko‘rsatib o‘tiladi. Unga binoran, kelgusi yili har bir viloyatdagi ball boniteti past, sug‘orish qiyin bo‘lgan va hosildorligi 30 sentnerdan oshmaydigan 1 tadan tumanda 70-80 sentnerdan yuqori hosil beradigan paxta urug‘ini chetdan olib kelishga ruxsat etiladi. Shuningdek, 30 sentnerdan past hosil berayotgan navlarni ekish to‘xtatilib, urug‘chilik institutlari tomonidan ishlab chiqilgan yangi serhosil navlar bilan almashitirildi.

Bu sohadagi yana bir dolzarb masala — ayrim klaster va fermerlar o‘rtasida hisob-kitob intizomi buzilgan. 122 ta klasterning Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasi va fermerlar oldida qarzdorligi bor. 6 ta klasterning ishlab chiqarish quvvati yo‘q bo‘lsa-da, ularga imtiyozli kredit berilgan.

Shundan kelib chiqib, klasterlarni tashkil etish, ular bilan fermerlar o‘rtasidagi munosabatlari bo‘yicha yangi tizim joriy qilinishi belgilandi.

Endi yangi klasterlarga moliyaviy ko‘rsatkichlari, ishlab chiqarish quvvatlari va texnika ta‘minoti bo‘yicha talablar qo‘yiladi va ochiq tanlov orqali tanlanadi. Ularda kamida ikki bosqichli qayta ishlash bo‘lishi shart.

Fermerlar bir viloyat ichidagi xohlagan klasteri bilan fyuchers shartnomasi tuzishi mumkin bo‘ladi. Ular fyuchers shartnomasidan ortgan hosilni birja orqali sotishiga ham imkoniyat yaratiladi.

Shuningdek, kelgusi yili hosili uchun paxta yetishtirishga 60 foiz avans ko‘rinishidagi imtiyozli kreditlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri fermerlarga ajratiladi.

Klasterlar esa yetishtirilgan paxtani sotib olish va terim uchun mablag‘ berish orqali moliyalashtiriladi. Chuqur qayta ishlashga ham alohida mablag‘lar ajratiladi.

Mutasaddilarga klaster va fermer xo‘jaliklarini moliyalashtirishning yangi tartibini yo‘lga qo‘yish, ular o‘rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlikni hal etish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Klasterlarni xalqaro moliya standartlariga o‘tkazish zarurligi qayd etildi.

Bu yilgi paxta hosilini to‘liq qayta ishlash natijasida 2024-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishini 9,6 milliard dollarga, eksportni esa 4,5 milliard dollarga yetkazish hisob-kitob qilingan.

Xususan, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida gazlama ishlab chiqarish va bo‘yoqxonalar tashkil qilish bo‘yicha 350 million dollarlik, Qoraqalpog‘istonda sun‘iy tola, gazlama-mato va bo‘yashga ixtisoslashgan 60 million dollarlik loyihalar boshlangan. Bu korxonalar kelgusi yil ishga tushirilib, tadbirkorlarga sanoat ipotekasi asosida beriladi. Ularda 1,5 milliard dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi.

Mazkur tarmoq rivojini qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, gazlama-mato, bo‘yash va tikuvchilik bo‘yicha yangi qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Jumladan:

— bo‘yalgan matoni 50 foizdan kam bo‘lmagan qismini ichki bozorga sotgan korxonalar ijtimoiy soliqni



SAMMIT

MANFAATLI MULOQOT UCHUN QULAY PLATFORMA

Ekspert va ishbilarmonlar Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kelajagini shunday baholashmoqda

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining o'n oltinchi sammiti va uning doirasida bo'lib o'tgan tadbirlar, uchrashuv va muloqotlar tashkilotga a'zo davlatlar ravnaqi uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'rta tashlangan masalalar, ilgari surilgan tashabbuslar bunga asos bo'ladi. Shu jihatdan olganda, mazkur nufuzli anjuman a'zo mamlakatlarning nafaqat buguni, balki kelajagi uchun ham ahamiyatli. Buni ekspert va tadbirkorlarning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi.

Ashraf XO'JAYEV,
O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligining Iqtisodiy diplomatiya departamenti direktori:

— 2021-yili Ashxobodda bo'lib o'tgan sammitda davlatimiz rahbari ilgari surgan tashabbuslarni xalqaro ekspertlar hamda a'zo davlatlar e'tirof etib, ular rivojlanishga juda jiddiy, kuchli turtki berganini ta'kidlaydi.

Chindan ham, 2021-yildan boshlab ushbu hamkorlikning barcha jabhalarda jiddiy faollashuvini ko'ryapmiz. 2022-yilda O'zbekiston birinchi marta mazkur tashkilotga raislik qildi. Raislik davrida o'zaro birgalikdagi harakatlarni chuqurlashtirishga yordam beruvchi ko'plab tadbirlar o'tkazildi.

O'zbekiston uchun bu tashkilot, avvalo, iqtisodiy manfaatlarimizni ilgari surishga qaratilgan ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish uchun juda yaxshi, qulay platformadir. Bu transport kommunikatsiyalari nuqtayi nazaridan ham muhim. Chunki IHTga a'zo davlatlar barcha davlatlar eng yaqin qo'shnilarimiz, tabiiy sheriklarimiz. O'zbekistonga va tashqi bozorlarga yo'nalgan barcha yuk va eksport oqimlarini aynan shu mamlakatlardan o'rtaqadi. Bular, birinchi navbatda, Turkmaniston, Eron, Turkiya va Afg'onistondir. Shu bois, transport tranzit sohasida hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash juda muhim sanaladi.

Hamkorligimizning yana bir yo'nalishi — savdo-sotiq. Bugungi kunda a'zo davlatlarning birgina neft savdosi bo'yicha o'zaro ulushi atigi 8 foizni tashkil etadi. Bu, masalan, Yevropa Ittifoqi va boshqa tuzilmalar ko'rsatkichlariga nisbatan ancha past. Bizda IHTga a'zo davlatlar bilan mintaqalararo savdo hajmini ko'paytirish uchun hali foydalanilmayotgan ulkan salohiyat mavjud. Bundan tashqari, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi

sohalarda hamkorlik faollikni talab etadi. IHTning deyarli barcha mamlakatlari suv resurslari, chang-to'zonlar, cho'llanish, yer degradatsiyasi borasida katta bosimni his qilmoqda. Ya'ni bu tashkilotga a'zo davlatlar uchun ham g'oyat dolzarb masalaga aylangan. Shu bois, 2021-yilda Prezidentimiz umumiy muammolarni muhokama qilishimiz va amaliy yechimlarni topishimiz uchun yetakchi xalqaro ekologik ekspertlar ishtirokida oliy darajadagi ekspert platformasini yaratishni taklif qildi.

Abdurashid BOZOROV,
Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi shoxba mudiri:

— Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining asosiy maqsadlari, asosan, a'zo mamlakatlarda aholi turmush tarzini yaxshilash, progressiv iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishga erishish, qolaversa, ularning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishida amaliy yordam berish hisoblanadi.

Tashkilot doirasida mintaqaviy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari transport logistikasi, savdo va investitsiya, energetika, mineral resurslar, atrof-muhitni muhofaza qilish, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash hamda ta'limni rivojlantirishdir.

Uning asosiy ustunligi a'zo davlatlarda yarim milliarddan ortiq aholi istiqomat qilishi. Bu juda katta bozor. Qolaversa, uning hududi mineral xomashyo va tabiiy resurslarga boy. Ularning zaxirasini inobatga oladigan bo'lsak, bu borada hamkor davlatlar ulkan istiqbolga ega.

Ushbu davlatlarning yalpi ichki mahsuloti 2022-yilda 2 trilyon dollarni tashkil qildi. Ular hissasiga to'g'ri keladigan savdo aylanmasi hajmi 1 trilyon dollardan oshmoqda. O'zbekiston bilan tashkilotga a'zo davlatlar tomonidan savdo hajmi 2021-yilda 35,1 foiz oshib, 11,2 milliard dollarni tashkil etdi. Ushbu tendensiya 2022-yilda ham davom etadi, tovar



ayirboshlash 10,4 foiz ortib, qariyb 12,4 milliard dollarga yetdi.

O'zbekistonning bugungi kundagi tovar aylanmasining to'rtdan bir qismi, eksportning uchdan bir qismi ushbu davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti Markaziy Osiyo davlatlari, shu jumladan, O'zbekiston uchun O'rtta yer dengizi, Fors va O'mon ko'rfazi dengiz yo'llariga kirish imkonini kengaytiradi. Bu orqali o'zaro savdo-investitsiya aloqalari yanada mustahkamlanadi.

Bahrom SOTIBOLDIYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i:

— Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammiti mintaqaravnaqi yo'lida gi muhim qadamlardan biri bo'ldi, deysha asoslar yetarli. Chunki bu orqali hozirgi geosiyosiy, geoiqtisodiy vaziyatda tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida yangi iqtisodiy aloqalar, yangi transport logistikasi masalalari, "yashil" energetika loyihalari birgalikda amalga oshirish bo'yicha hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi.

Hozir dunyoda geosiyosiy, geoiqtisodiy munosabatlarni keskinlashib boryapti. Bunday

sharoitda mintaqada barqarorlikni ta'minlashga e'tibor qaratilib, savdo-iqtisodiy aloqalari tobora mustahkamlanib borayotgani, o'zaro ishonch ortayotgani diqqatga sazovor. Bu esa a'zo mamlakatlarni manfaatga daxldor ulkan loyihalarni ro'yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratadi.

Har qanday qiyinchilik va dunyodagi geosiyosiy vaziyatlarga qaramay, Markaziy Osiyo va tashkilotga a'zo davlatlar birgalikda yangi sanoat kooperatsiyalarini yo'lga qo'yishi, transport logistikasi loyihalari yuzaga chiqarishi, yangi moliyaviy-investitsiyaviy loyihalar, umuman, o'zaro bordi-keldi, oldi-sotdi munosabatlarni rivojlantirishi muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, transport logistikasi xususida gap ketganda, Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lovchi Termez — Mozori Sharif — Peshovar temir yo'li yoki Markaziy Osiyo — Afg'oniston — Eron, Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasidan o'tuvchi transport koridorlariga alohida to'xtalib o'tish joiz. Chunki mazkur yo'laklar tashkilotga a'zo mamlakatlarni ravnaqida alohida o'rta tutadi.

To'g'ri, dunyo ziddiyati va bundan keyin ham xoli bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib aytdigan bo'lsak, tashkilot doirasidagi hamkorlik ahamiyati ortib boraveradi.

Afzalxon ORTIQOV,
Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi bosh ilmiy xodimi:

— Bugungi kunda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasidagi aloqalar O'zbekistonning tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlariga mos keladi. Tashkilotga a'zo mamlakatlarning deyarli barchasi bilan O'zbekiston strategik sherikchilik munosabatlarni o'rnatgan.

Avvalo, Markaziy Osiyo, ya'ni qo'shni davlatlar bilan hamkorlik so'nggi olti yilda faollashib, aloqalar mustahkamlanmoqda. Bu, xususan, siyosiy va iqtisodiy nuqtayi nazardan juda katta ahamiyatga ega o'lim.

O'zbekiston yuritayotgan yangilangan tashqi siyosat natijasida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarni joriy tomonga o'zgartirib, do'stona, yaqin qo'shnichilik va o'zaro manfaatli aloqalar rivojlandi. Ishonch kuchaydi.

O'zbekistonning pragmatik sa'y-harakatlari tufayli uzoq yillar hal bo'lmagan muammolar yechimini topdi. Mintaqa barqarorlik makoniga aylandi. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizdagi islohotlarga joriy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozir Markaziy Osiyoda kuzatilayotgan joriy iqtisodiy hamkorlik tashkiloti faoliyati uchun ham muhimdir.

Bundan tashqari, Ozarbayjon va Pokiston bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, Turkiya hamda Eron bilan hamkorlik mustahkamlanishi mamlakatimiz savdo-iqtisodiy aloqalari ga joriy ta'sir ko'rsatmoqda. Turkiya, Eron va Pokiston tuzilimining asoschilari hisoblanadi. Ular texnologiy, investitsiyaviy va iqtisodiy salohiyati juda yuqori davlatlar. Ularning bu imkoniyatini O'zbekiston o'z sanoatini rivojlantirishga jalb etadi.

Hozir IHT yetakchi qatnashchilari, ya'ni Turkiya, Eron va Pokiston O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar yo'naltirmoqda. Jumladan, Turkiya mamlakatimizning yirik investitsion hamkoridir. Oxirgi yillarda ushbu davlat yurtimiz iqtisodiyotiga 3,5 milliard dollar sarmoya kiritgan.

Umuman, O'zbekistonda tashkilotga a'zo davlatlar kapitali bilan 4 mingdan ziyod korxonaga faoliyat yuritmoqda. Tashkilot davlatlari umumiy tarix, madaniyat va diniga ega yarim milliard aholini birlashtirgan yirik savdo bozori hisoblanadi. O'zbekistonning ular bilan savdo aylanmasi 2023-yil yanvar-sentabr oylarida 9 milliard dollardan ziyodni tashkil etdi.

Yorqin MALIKOV,
O'zbekiston eksportchilar uyushmasi raisi:

— Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammiti doirasida a'zo davlatlar ishbilarmon doiralari 600 ga yaqin vakili ishtirokida biznes forum ham tashkil etildi. Bu o'zaro tajriba va fikr almashish, hamkorlik yuzasidan kelishuvlarga erishish, manfaatli shartnomalar imzolash uchun qulay sharoit yaratdi.

Aslida, tadbirkorlar uchun qo'shni mamlakatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni ishni tashkil etish, tashqi bozorlarga chiqishda yon-atrofdagi davlatlar bilan aloqalar muhim. Keyingi yillarda O'zbekiston yuritayotgan yaxshi qo'shnichilik siyosati biznes vakillari uchun ayni shu jihatdan qo'ri kelmoqda.

Biznes forum davomida Markaziy Osiyo davlatlar tadbirkorlarining yurtimiz ishbilarmonlari bilan hamkorlik qilish istiqbolini kuchli: munosabatlarni yanada mustahkamlash, loyihalarni birgalikda ro'yobga chiqarish niyatida. Pirovardida, ular tomonidan 1,5 milliard dollarlik shartnomalar imzolandi. Bular, tabiiyki, yurtimizda biznes muhiti tobora yaxshilanib borayotgani, ishbilarmonlarga qulay ish sharoiti yaratib berilayotgani samarasidir.

Biznes forum, shuningdek, bizga bozorlarni tahsil qilish, eksport-import imkoniyatlarini o'rganish uchun ham qulay maydon bo'ldi. Munosabat va hamkorlik ana shunday o'rganishlarga asoslanadi.

Abdurahmon HAKIMOV,
tadbirkor:

— O'n yil logistika sohasida ishlaganman. Keyin agroklastlarda eksport bo'yicha faoliyat yuritganman. Joriy yil boshida esa meva-sabzavot, quritilgan va muzlatilgan meva eksporti bilan shug'ullanuvchi korxonaga tashkil qildim. Demochimanki, tadbirkorlik borasida yetarli-chi tajribaga egam.

O'zbekistonning meva-sabzavot yetishtirish bo'yicha salohiyati yuqori va ularga xorij bozorlarida talab katta. Shundan kelib chiqib, joriy yilda Malayziya va Rossiya o'rik, gilos, olcha kabi mahsulotlarni eksport qilidim.

Hozir biz, tadbirkorlar dengiz yo'li orqali mahsulotlarimizni yangi bozorlarga olib chiqishga intilyapmiz. Shu jihatdan tadbir biz uchun foydali bo'ldi. O'zim eronlik, turkmanistonlik, turkiyalik va tojikistonlik tadbirkorlar bilan ushbu masalada muloqot qilib, kelishuvlarga erishdim.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Dilshod ULUG'MURODOV yozib oldi.

XALQARO EKSPERTLAR FIKRI

O'ZBEKISTON TASHABBUSLARI TUFAYLI IHT RIVOJLANISH UCHUN YANGI KUCH OLMOQDA

XORIJIY MUTAXASSISLAR IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTINING TOSHKENT SHAHRIDA BO'LIB O'TGAN 16-SAMMITI YAKUNLARI HAQIDA

8-9-noyabr kunlari Toshkentda "Hamkorlikda iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot sari" shiori ostida Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Tadbirga O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raislik qildi. Unda Ozarbayjon, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiya davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etdi.

Sammit arafasida Toshkentda tashkilotga a'zo davlatlar ishbilarmon doiralari va hukumat vakillari ishtirokida biznes forum bo'lib o'tdi.

Toshkentda ilk bor bo'lib o'tgan ushbu tadbir xalqaro maydonda katta aks sado berdi. Sammit yakunlari xalqaro ekspert doira vakillarining yuqori qiziqishiga sabab bo'layotir.

Jan-Antuan DYUPRA,
Yevropada proqnozlash va xavfsizlik instituti eksperti, O'zbekiston bo'yicha mutaxassis (Fransiya):

— IHT Yevropa Ittifoqi misolida savdoni rag'batlantirish, yagona tovar va xizmatlar bozorini yuvudga keltirish maqsadida a'zo davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirishga intiladi. Ushbu ulkan hududiy tuzilmada O'zbekistonning rolini oshirish Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashqi iqtisodiy strategiyasiga to'liq mos keladi. IHT davlatlari respublikaning asosiy savdo hamkorlariga aylandi. 2022-yilda O'zbekiston va IHT mamlakatlari o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 12,3 milliard dollardan oshdi, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida esa 5,8 milliard dollardan oshdi.

O'zbekistonning IHTga raisligi boshlangan 2022-yildan buyon ko'plab sohalarida 25 dan ortiq tadbir tashkil etildi. Masalan, 2022-yil iyul oyida Toshkentda IHTga a'zo davlatlar qishloq



xo'jaligi vazirlarining 7-yig'ilishi, 2022-yil dekabrda turizm vazirlarining to'rtinchi yig'ilishi, 2023-yil yanvar-iyul oylarida IHTga a'zo davlatlar tashqi ishlar vazirlari kengashining 26-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Shu nuqtayi nazardan, IHTning Toshkentda ilk bor o'tgan 16-sammiti tashkilot taraqqiyotining yangi bosqichi va ulkan istiqbolarni ko'rsatadi.

IHT Markaziy va Janubiy Osiyo, shuningdek, Yaqin Sharq o'rtasida savdo va sarmoyaviy imkoniyatlarini rivojlantirish va rag'batlantirishga yordam beruvchi tashkilotga aylanmoqda.

O'zbekiston IHT doirasida avtomobil va temir yo'l transporti infratuzilmasiga, mintaqalararo tranzit uzellarini yaratishga, transport va tranzit tariflarini optimallashtirishga, xususan, raqamlashtirishni joriy etishga, unga a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni, Afg'onistonga ko'makni kuchaytirish, bu davlat bilan birgalikda turli sohalarida yirik loyihalarni amalga oshirishga sarmoya kiritish tarafdori.

Son CHJUANCHI,
Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti direktori:

— IHTning Toshkent sammiti mazkur tashkilot tarixiga uning faoliyati rivojiga kelgusi yillar uchun yangi kuchli turtki bergan muhim voqea sifatida kiradi.

O'zbekistonning IHTga raisligining asosiy leymotivi Markaziy Osiyoning qo'shni va uzoq mintaqalar bilan o'zaro bog'liqlikni faol mustahkamlashdan iborat bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan xalqaro yuk va yo'lovchi tashuvlarini yangilash, bu orqali tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ilgari surilgan tashabbuslar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonning faol sa'y-harakatlari samarali ta'siri yirik "SHHT oilasi"ning bir qismi bo'lgan IHTga a'zo davlatlar geografiasidan ham chetga chiqadi. Yevropa va Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi ko'plab davlatlar transport va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdor. Xususan, O'zbekistonning bu boradagi tashabbuslari Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" va Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida ilgari surilayotgan ustuvor yo'nalishlar bilan hamohangdir.



Mehmet Seyfettin EROL,
Anqara inqiroz va siyosiy tadqiqotlar markazi — "ANKASAM" (Turkiya) direktori:

— Avvalo, mintaqaviy hamkorlik bo'yicha muhim tashkilot — IHT sammitiga O'zbekiston ilk bor mezbonlik qilayotganini ta'kidlash lozim. Tashkilotdagi faoliyati mamlakatning ko'p qirrali tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'zaro muvaffaqiyat, konstruktiv diplomatiya, tinchlik va farovonlik tamoyillariga asoslangan.

Xalqaro maydonda inqiroz va muammolar kuchayib borayotgan bir paytda mazkur sammit "global tinchlik", "global taraqqiyot va farovonlik", "global barqarorlik va xavfsizlik" maqsadlari doirasidagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Markaziy Osiyoning yuragi bo'lgan O'zbekis-



ton mintaqaviylik katta ahamiyat kasb etgan yangi xalqaro muhitda yana bir bor hamkorlik, do'stlik va sivilizatsiyalarning muhim chorrahasi sifatida namoyon bo'lmog'ga.

E'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydigan yana bir muhim jihat shundaki, ushbu tadbir Uchinchi Renessans davri me'mori bo'lgan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi yuksak saviyada o'tkazildi.

Sammit kun tartibidagi masalalar naqadar dolzarb ekanini ko'rdik. Bunga a'zo davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, savdo va madaniy hamkorlikni yaxshilash, mintaqaviy savdo, transport infratuzilmasini rivojlantirish va boshqalar kiradi. Sammitda Falastin — Isroil muammosi va Falastiniga gumanitar yordam ko'rsatish kabi dolzarb mavzular ham muhokama qilindi. Bu signallar inson qadr-qimmatiga qaratilgan yuksak sivilizatsiyaning muhim markazlaridan biri bo'lgan O'zbekistonda kelayotgani juda muhim.

Sualeh FARUKI,
Pokiston savdo vazirining birinchi o'rinbosari:

— Pokiston tomonidan iqtisodiy hamkorlik tashkilotining joriy yil 8-9-noyabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan sammitiga puxta hozirlik ko'rdi. O'zbekiston IHT tarixida birinchi marta, mubolag'a-siz, tashkilotni ishtirokchi davlatlar uchun savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va siyosiy hamkorlik tashabbuslarini ilgari surishning haqiqiy vositasiga aylantira oldi.

Bu, shubhasiz, global geosiyosiy qarama-qarshiliklarning murakkab davriga qaramay, Yevropa davlatlari va global janub mamlakatlari bilan uzoq muddatli hamda yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ulkan xizmatidir. Mazkur sammit doirasida 1-2-noyabr kunlari Toshkent shahrida O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan IHTga a'zo davlatlar transport vazirlarini rahbarlari uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda Pokistondan kommunikatsiyalar va temir yo'lkar vaziri



Shahid Ashraf Tarar va temir yo'lkar vazirining birinchi o'rinbosari Sayyid Mazhar Ali Shoh ishtirok etdi. O'zbekiston transport vaziri Ilhom Mahkamov bilan uchrashuvda transfg'on temir yo'li qurilishini jadallashtirish, xalqaro logistika kompaniyalari haydovchilari uchun o'zaro kvotalar miqdorini oshirish, bojxona tartib-taomillari sod-dalashtrish va mamlakatlarimiz va Afg'oniston orqali tranzit tashish masalalari kelishib olindi.


8-noyabr kuni IHT sammiti doirasida ilk bor savdo va sarmoyaviy loyihalarni ilgari surish bo'yicha biznes forum o'tkazildi. Pokiston Savdo-sanoat palatalari federatsiyasi raisi o'rinbosari Amjad Rafi boshchiligidagi mamlakatimizning to'qimachilik, kimyo, qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatidagi 20 ga yaqin yirik kompaniya vakillaridan iborat delegatsiyasi ushbu tadbirda ishtirok etdi. O'ylaymanki, IHTning Toshkentda bo'lib o'tgan sammiti mazkur tashkilotning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi va unga muhim rol, ahamiyat va xalqaro nufuz beradi.

Vita KOBIELA,
Yevropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo munosabatlari bo'yicha mustaqil tahlilchi, COTANCE agentligining loyihalar va kommunikatsiyalar bo'yicha menejeri (Belgiya):

— Toshkent Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammitiga mezbonlik qilish asnosida yana bir bor mintaqaviy hamkorlik markaziga aylandi. Mazkur voqea va uning natijalari O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rni, o'zida chuqur tarixiy meros va innovatsiyalarga intilishni mujassam etgan mamlakatning o'rni ortib borayotganidan yaqqol dalolatdir.

500 million kishilik bozorga ega Ozarbayjon, Eron, Pokiston, Turkiya va Markaziy Osiyoning beshta mamlakati davlat va hukumat rahbarlarining mazkur forumdagi ishtiroki IHT doirasida ilgari surilgan va muhokama qilingan tashabbuslarga xalqaro miqyosda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Bu, ayniqsa, O'zbekiston tashabbuslariga taalluqli. Prezident Shavkat Mirziyoyevning YUNIDO va SPEKA bilan birgalikda IHT doirasida Savdo, investitsiya va innovatsiyalar markazini tashkil etish va uning bosh ofisini Toshkent shahrida joylashtirish taklifi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tarixida yangi sahifa ochmoqda. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining dinamik xususiyatini aks ettiruvchi ushbu taklif Markaziy Osiyoni global sarmoya va texnologik almashinuv maydoniga aylantirishi mumkin. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi 12,3 milliard dollardan oshgan O'zbekiston o'zini



IHTdagi asosiy iqtisodiy hamkorlik sifatida va mintaqada savdo hamda sarmoyaviy aloqalarni mustahkamlashdagi ahamiyatini ko'rsatmoqda. Iqtisodiy hamkorlikdagi muvaffaqiyat butun mintaqaga uchun innovatsiyalar va rivojlanishning drayveri bo'lib xizmat qiluvchi 4400 ga yaqin qo'shma korxonaga tashkil etilishi bilan birga keladi.

O'zbekiston turli xalqaro tashkilotlardan IHT huzuridagi kuzatuvchilarni olqishlab, ko'p tomonlama muloqotga sodiqligini va xalqaro tamoyillarga hurmatini namoyish etdi. Bu dunyo tobora o'zaro bog'liqlikka tayanib borayotgani va har bir ovoz tinglashga loyiq ekanini chuqur anglashdan dalolat beradi.

IHTning "Istiqbollar — 2025" dasturi O'zbekiston va uning hamkorlari oldiga savdo, transport, energetika va atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan ulkan maqsadlarni qo'ydi. Bu O'zbekiston o'zgarishlar katalizatori rolini o'ynaydigan mintaqaga uchun barqaror va farovon kelajak yaratishga qaratilgan strategik yondashuvdir.

Tabiiy resurslar va madaniy merosga boy o'zbek zamini mehmondor'stlik va madaniy almashinuv markazi sifatidagi rolini yana bir bor ta'kidlaydi.

Toshkentda bo'lib o'tgan sammit nafaqat "aqlar" uchrashuvi va fikr almashish, balki o'zbeklarning ochiqligi va an'analari bayrami bo'lib, diplomatiya va do'stona munosabatlarni iqtisodiy o'sish hamda innovatsiyalar bilan yonma-yon turishini namoyish etdi.

Sherodil BAKTIGULOV,
Qirg'iziston Prezidenti huzuridagi Milliy strategik tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi, siyosatsuhos:

— Toshkent dunyoning muhim tashqi siyosiy voqealari markazlaridan biriga aylanib bormoqda. IHTga a'zo davlatlar birgalikda yashashning ming yillik tarixiga ega. Bugun ular keng rivojlanish sohalarida "soatlarni to'g'ri" oldilar.

IHT ko'p jihatdan O'zbekiston tashabbuslari tufayli yangi rivojlanish energiyasiga ega bo'lmoqda. Bugun O'zbekiston Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropaning transport va energetika ar-teriyalari tutashadigan joyga aylandi.

Yangi O'zbekiston — Osiyodagi eng jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega davlat. Bundan tashqari, iqtisodiy nuqtayi nazardan, 36 million aholisi borligi mamlakat butun sobiq ittifoq hududida ikkinchi yirik iste'mol bozori ekanini anglatadi.

Bu va boshqa omillar uyg'unligi O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar oqimi bo'yicha "birinchi raqamli"ga aylantiradi. Shunday ekan, yangi O'zbekiston IHT faoliyatida asosiy o'rni tutadi.

Transport-energetika yo'laklarini yaratish, biznes, eng muhimi, Markaziy va Janubi-sharqiy Osiyo, Yaqin va O'rtta Sharq mamlakatlari farovonligi, IHT doirasida o'zaro manfaatli hamkorlikka intilishi ko'p jihatdan O'zbekistonning pozitsiyasi va tashabbuslariga bog'liq.



BIZ VA DUNYO

O'ZBEKISTON — ITALIYA: TARIXIY ALOQALAR YANGI MAZMUN BILAN BOYIMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Italiya Prezidenti Serjo Mattarella 9-11-noyabr kunlari rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ladi. Italiya O'zbekistonning muhim va ishonchli hamkorlaridan biridir. Mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlarni 1992-yil 24-martda o'rnatilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 8-9-iyun kunlari Italiyaga rasmiy tashrifi O'zbekiston — Italiya ko'p qirrali hamkorligini rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Tashrif doirasida davlatimiz rahbari Italiya Prezidenti Serjo Mattarella, Bosh vazir Jorja Meloni, ushbu mamlakat ishlabarmon doiralari va hududlari vakillari bilan samarali muzokaralar o'tkazdi. Tashrif yakunlari bo'yicha ikki mamlakat o'rtasida strategik sheriklik munosabatlari o'rnatish to'g'risida qo'shma deklaratsiya qabul qilindi hamda ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan 11 ta davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo hujjat imzolandi. Ushbu hujjatlar siyosat, xavfsizlik, iqtisodiyot, energetika, madaniy-gumanitar sohalaridagi ikki tomonlama hamkorlikka yangi ruh va kuchli turki beradi.

O'zbekiston va Italiya BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida muvaffaqiyatli hamkorlik qilib kelmoqda. Italiya O'zbekistonning Markaziy Osiyoda sheriklik, yaxshi qo'sh-nichlik va ishonch muhitini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarini ko'lab-quvvatlaydi, shuningdek, Italiya — Markaziy Osiyo hamkorlik formatini yanada rivojlantirish tarafdori.

Bugungi kunga qadar ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda hamkorlikni muvofiqlashtirish

uchun barcha zarur institutsional mexanizmlar yaratilgan va ular muvaffaqiyatli ishlayotgan. Ikki davlat tashqi siyosat idoralari o'rtasida muntazam ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazilib, ularda ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilinayotir. Shuningdek, savdo-iqtisodiy, sanoat hamkorligi va eksport kreditlari bo'yicha hukumatlararo ishchi guruh samarali faoliyat ko'rsatyapti.

Ikki mamlakat o'rtasidagi parlamentlararo aloqalar ham izchil rivojlanmoqda. 2011-yildan buyon Italiya parlamenti Deputatlar palatasi va Senati bilan hamkorlik qilish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatida parlamentlararo guruhlar faoliyat yuritaypti. Shuningdek, Italiya parlamentida Italiya — Markaziy Osiyo do'stlik guruhi tuzilgan.

Bundan tashqari, mamlakatlarimiz o'rtasidagi idoralararo va hududlararo hamkorlik yangi sur'at kasb etayotir. O'zbekiston va Italiyaning munosabatlari chuqurlashtirishda o'zaro manfaatdorligi savdo-iqtisodiy aloqalar va sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirishning bugungi dinamikasini belgilab beradi.

Italiyalik investorlarning O'zbekistonga qiziqishini davlatimiz rahbarining iyun oyidagi tashrif arafasida ikki mamlakat ishlabarmon doiralarning 300 ga yaqin vakili ishtirokida

o'tkazilgan qo'shma biznes forum yakunlari, shuningdek, Milanda Prezident Shavkat Mirziyoyev va ushbu mamlakatning yirik kompaniyalari rahbarlari ishtirokida bo'lib o'tgan davra suhbatlari ham tasdiqlaydi.

Biznes forum yakunlari bo'yicha energetika, gaz kimyosi va neft-gaz sanoati, metallurgiya, kimyo, to'qimachilik sanoati va qishloq xo'jaligi sohalarida hamkorlik loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi umumiy qiymati 9 milliard yevrodan ortiq bo'lgan investitsiya va savdo bitimlari imzolandi.

Bugungi kunda O'zbekistonda Italiya kapitali ishtirokidagi 52 ta korxonaga faoliyat ko'rsatadi. Ulardan 33 tasi qo'shma va 19 tasi esa to'liq Italiya sarmoyasi asosida tashkil etilgan. Italiyaning olitta kompaniyasi ofislari, shuningdek, Italiya — O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi O'zbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi akkreditatsiyasidan o'tgan. Ularning asosiy faoliyat yo'nalishlari za'faron, alkogolsiz ichimliklar, vino, shisha aksessuarlar, parfumeriya, muzqaymoq, to'qimachilik, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish, savdo-chiqindilarini qayta ishlash, savdo-sotiq va vositachilik xizmatlaridan iborat.

Eng qulay davlat rejimi O'zbekiston va Italiya o'rtasidagi savdoda ko'zlaniladi. Joriy yilning 9 oyida o'zaro tovar ayirib olish hajmi qariyb 390 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Ikki davlat tadbirkorlarining hududlararo hamkorligi kengaymoqda. Xususan, Toshkent viloyati va Italiyaning Lombardiya mintaqasi o'rtasida kommunal infratuzilma, kimyo, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarida

qo'shma loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi dastur ishlab chiqildi.

O'zbekiston Yevropa va Osiyo o'rtasidagi ko'prik, sheriklik nuqtayi nazaridan strategik davlat, ulkan salohiyatga ega. Biz O'zbekistonning zamonaviy rivojlanishida ishtirok etishni istamaymiz va ko'p tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirishga tayyormiz. Tadbirkorlar ilg'or texnologiyalar va yuqori sifati yakuniy mahsulotlar taklif etuvchi hamkorlikka tayyor. Biz ikki tomonlama hamkorlik salohiyatini to'liq ro'yogga chiqarish uchun ko'mak beramiz", dedi Italiya tashqi ishlar va xalqaro hamkorlik vaziri o'rinbosari Edmondo Chiriyelli joriy yilning iyun oyida bo'lib o'tgan biznes forumdagi nutqida.

O'z navbatida, bugungi kunda O'zbekiston italiyalik biznesini keng qo'lab-quvvatlash chora-tadbirlari va ularning mamlakatimizdagi faoliyati uchun samarali platforma yaratishga tayyor.

Ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi chuqur tarixiy ildizlarga borib taqaladigan madaniy-gumanitar aloqalar, iliq, do'stona munosabatlari O'zbekiston — Italiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Buyuk ipak yo'li davrida Rim va Movarounnahr o'rtasida madaniy almashinuvlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, faol savdo-sotiq qilingan. Xususan, yurtimizdagi arxeologik qazilmalar davomida idilzari Rimga borib taqaladigan artefaktlar aniqlandi. Masalan, eski Termiz xabarolari ostidan imperatorlar Trayan va Mark Avreliy davriga oid yuzlab kumush tangalar, nafis marmardan ishlangan haykalcha-

lar qoldiqlari va Rim xudolari tasvirlari tushirilgan noyob ashyolar topildi. O'rta yer dengizi va Markaziy Osiyo mintaqalari o'rtasida savdo aloqalaridan tashqari diplomatik munosabatlarni ham rivojlantirish. Rimga kushonlar, xorazmiylar va turkiylar elchilari bir necha bor tashrif buyurgan. Munosabatlarning eng gullagan onlari Amir Temur hukmronligi davriga to'g'ri keladi. O'sha paytda Sharqqa ekspeditsiya bilan tashrif buyurgan venetsiyalik savdogarlar o'z tarjimai hollarida hozirgi O'zbekiston hududidagi shaharlar — Buxoro va Samarqandning go'zalligi hamda ulug'vorligini yuqori baholagan.

Bugungi kunda ikki mamlakat olimlari mazkur madaniyatlar tarixi va merosini chuqur o'rganmoqda, o'zaro tajriba va tadqiqot natijalarini almashmoqda. Neapol va Rimning Sapiyensa universitetlari bilan hamkorlikda "O'zbekiston madaniy merosi Italiya to'plamlarida" kitobi nashr etilishi mazkur yo'nalishda o'zaro hamkorlikning yorqin natijalaridan biri bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining Italiyaga joriy yildagi rasmiy tashrifi doirasida mamlakatlarimiz o'rtasida madaniy va ilmiy hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitim imzolandi. Hujjatda mazkur sohalaridagi hamkorlik istiqbolli va yangi yo'nalishlari belgilab berilgan. Tashrif doirasida mamlakatlarimiz o'rtasida 2026-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan yangi madaniy almashinuv dasturi ham imzolandi.

O'tgan yillar davomida O'zbekiston va Italiya o'rtasida tilim, turizm, madaniyat va san'at, sport va arxeologiya sohalarida ham-

korlikni rivojlantirish borasida muayyan natijalarga erishildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda italyan tilini o'rgatish bo'yicha kurslar faol ishlayotgan. Toshkentda Turin politexnika universiteti va Piza universitetining filiallari faoliyat yuritmoqda. Ayni paytda ushbu oliy ta'lim muassasalarida 700 dan ortiq talaba tahsil oladi.

"Erazmus+" dasturi orqali Italiyadagi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik keng rivojlantiraypti. Rim va Toshkent aloqalari innovatsiyalar va yoshlar tadbirkorligi sohalarini ham qamrab olgan. Hozir O'zbekistonda yoshlar o'rtasida startaplarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shma dasturni ishga tushirish imkoniyati ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi va Italiya Milliy tadqiqot kengashi o'rtasida 2021-yilda imzolangan hamkorlik to'g'risidagi bitim doirasidagi hamkorlik izchil davom etyapti.

O'zbekiston Milliy paviyoni, uchinchi yildir, Venetsiya xalqaro arxitektura biennalesining italyalik va xorijiy mehmonlari orasida katta muvaffaqiyatga erishmoqda.

Ikki davlat o'rtasida sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha ijobiy natijalar ko'zga tashlanayotir. Jumladan, 2022-yilda O'zbekistonga italiyalik 9 mingga yaqin sayyoh keldi. Bugun Italiya Yevropaning O'zbekistonga sayyohlari faol tashrif buyuradigan beshta davlatdan biri hisoblanadi.

O'zbekiston va Italiya o'rtasida erishilgan o'zaro anglashuv va sheriklik darajasi siyosiy, iqtisodiy va madaniy muloqotni muvaffaqiyatli davom ettirish hamda ikki davlat hamkorligini rivojlantirishda yangi uyg'unlashuvning boshlanishi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilaypti. Shu nuqtayi nazardan, Italiya Prezidenti Serjo Mattarellaning O'zbekistonga tashrifi bu jarayonga yana bir kuchli turki bo'lib, tomonlar o'rtasidagi mustahkam do'stlik va strategik sheriklikni har jihatdan kengaytirish va chuqurlashtirishga intilishning yaqqol tasdiqi bo'ladi.

"Dunyo" AA

BANDLIK

KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH:

Zarur ko'mak olib ish boshlaganlarning aksariyati atrofdagi boshqa ishsizlar bandligini ham ta'minlayotgani, ayniqsa, quvonarli. Ya'ni biz bir kishiga yordam berish orqali o'nlab insonning ishli bo'lishiga hissa qo'shaymiz.

YANGI TAJRIBA QANCHALIK NATIJA BERADI?



Salohiddin SAMADOV, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasi ijrochi direktori

Ishsizlik, kambag'allik jamiyat uchun jiddiy muammo. Ammo boqimandalik yanada yomonroq. To'rt mchasi sog', mehnatga layoqatli bo'la turib, "bersang yeyman, ursang o'laman", qabilida yashash o'zbek xalqiga xos emas. Bizning ota-bobolarimiz qanday mehnat bo'lmasin, astoydil yondashib, albatta, natijaga erishgan. Qolaversa, har qanday ishni yaxshi niyat, mehr bilan qilgan, o'rganishdan to'xtamaydigan inson kun kelib, unib-o'sishi, rivojlanib, daromad manbaini kengaytirishi tayin.

Bugun mamlakatimizda vaqtincha ishsiz, kam ta'minlangan yoki imkoniyati cheklangan insonlarni jamoat ishlariga jalb qilish orqali mehnatga munosib haq to'lanadigan tizim yaratildi. Bu aholi bandligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, nafaqat obodonlashtirish, balki xizmat ko'rsatish, qurilish, mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlari, chorvanasi tarmog'ini rivojlantirish sohalaridan tortib, ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga patronaj xizmati ko'rsatish, tadbirkorlikni boshlash va qator yo'nalishlarda ishsiz hamda band bo'lmagan fuqarolarni vaqtinchalik, malaka talab qilmaydigan haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilishni nazarda tutadi.

Chunki har qanday toifadagi aholi bandligini ta'minlash, doimiy daromadga ega bo'lishiga ko'maklashish mamlakatimiz si-

yosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri. Ishli odamning ko'ngli to'q, oilasida tinchlik va farovonlik bo'ladi. Qolaversa, aholi bandligi iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Shu bois, yurtdoshlarimiz daromadini oshirish, aholi talablari va xalqaro standartlarga javob beradigan ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish kabi qator muhim vazifalar O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham belgilab qo'yilgan.

Afsuski, jamiyatda hamma ham oliy ma'lumot yoki biror kasb-hunarga ega emas. Ma'lum sabablarga ko'ra, vaqtincha ishsiz qolganlar ham oramizda bor. Oxirgi 5-6 yilda jamoat ishlariga jalb etish tizimi kam ta'minlangan oilalar, ishsiz xotin-qizlar, yoshlar, mehnatga layoqatli fuqarolarning bandligiga ko'maklashishda muhim o'rin tutayotgani boisi shunda. Ayniqsa, oylikning o'z vaqtida berilib, tizimda shaffoflikning yaratilgani muh-toj oilalarga ko'mak bo'lyapti, odamlarning jamoat ishlarida qatnashib, daromad topishga ishonchi ortmoqda.

Tizimda mehnat qilayotgan har bir odamning maoshi muntazam yetkazib berilishida esa Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasi bevosita mas'uldir. Bugungi kungacha jamoat ishlariga jalb etilayotgan yurtdoshlarimizning ish haqlari jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtirib kelinmoqda.

Har bir mahallada tadbirkorlar bo'lishi kerak

Hozirgi kunda odamlarda nafaqat kunlik ishlarida mehnat qilib daromad topish, balki biror yo'nalishda o'z tadbirkorligini boshlab, ishlabarmonga aylanish ishtiyoqi yuqori. Bu ishtiyoqni ro'yogga chiqarish uchun esa yurtimizda zarur sharoit yaratgan. Tadbirkor bo'laman, degan insonga hech qanday to'siq yo'q, aksincha, qator tashkilotlar tomonidan faqat ko'mak, qo'llab-quvvatlov bor. Jamoat ishlari jamg'armasi ham ulardan biri.

Ya'ni ishsiz aholi bandligini ta'minlash bilan birga, odamlarni tadbirkorlikka yo'naltirish, o'z ishini boshlab, faoliyatini kengaytirishga ko'maklashish jamg'armaning muhim vazifalari qatoriga kiradi. Masalan, jamg'arma mablag'lari hisobidan dastlabki ishni boshlash uchun zarur bo'ladigan mini texnika, inventarlar xarid qilinib, foizsiz ijara asosida berish yo'lga qo'yilgan. Birgina joriy yilning to'qqiz oyida umumiy qiymati 9,7 milliard so'mlik ming dona asosiy vosita va inventar xarid qilinib, tadbirkorlik subyektlariga ijara qilingan. Ular orasida tikuv mashinalari, motokultivator, mini uskunalar bor. Ijaraga berilgan inventarlar orqali qariyb 2 ming ishsiz fuqaroning bandligi ta'minlandi. Ularning ko'pi ijtimoiy daftarlar ro'y-xatida turgan. Bu insonlarning doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi o'rtida yuzlab oilalarga xotirjamlik ingani shubhasiz.

Zarur ko'mak olib ish boshlaganlarning aksariyati atrofdagi boshqa ishsizlar bandligi-



ini ham ta'minlayotgani, ayniqsa, quvonarli. Ya'ni biz bir kishiga yordam berish orqali o'nlab insonning ishli bo'lishiga hissa qo'shaymiz. Xususan, Andijon viloyatidagi "Rizq invest max" MCHJga 50 ta tikuv mashinasi ijaraga berilishi ortidan shuncha xotin-qiz ishli bo'ldi. Shu hududdagi "Mahbubaxon 2008" MCHJga 66 ta, Navoiy viloyatidagi "Gulnoz Tosh" XKga 15 ta, Sirdaryo viloyatidagi "White dream-777" MCHJga 15 ta, Toshkent shahridagi "Mohir Texart" MCHJga 50 dona va boshqa ko'plab tekstil korxonalariga tikuv mashinalari ijaraga berilgach, ularning ish faoliyati yanada kengaydi, buning ortidan qo'shimcha ish o'rinlari yaratildi.

Tadbirkorlar o'z mahsulotini ichki bozordagi tashqari xorijga ham eksport qilaypti. Jumladan, poytaxtimizning Yakkasaroy tumanida joylashgan "World kids fashion" MCHJga 62 ta tikuv mashinasi ijaraga berilgan edi. Korxonada buning hisobiga 82 fuqaro bandligini ta'minlab, 46 oilaning kambag'allikdan chiqishiga ko'maklashdi. Ayni paytda korxonada bolalar va ayollar kiyim-kechaklari ishlab chiqarilaypti. Yillik quvvat 18 ming donaga yetdi. Rossiya davlatiga 1,8 milliard so'mlik mahsulot eksport qilindi.

Sirdaryo tajribasi ommalashtiriladi

Aholi bilan ishlash, fuqarolar bandligini ta'minlashda mahallalarning o'rni alohida. Yurtimizda yaqin yillarda yaratilgan va jahonda muvobili topilmaydigan "Mahallabay ishlash" tizimi bu borada, ayniqsa, muhim institutga aylandi. Aholining yashash sharoiti va mavjud muammolari shu tizimning o'zida o'rganilib, har yor echimlari topilyapti. Mahallalar mamlakatimizdagi deyarli barcha davlat idoralari, nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlash, har bir fuqaro bandligini ta'minlashga intilmoqda.

tirish va ko'lamzorlashtirish, tomorqalardan foydalanish samaradorligini oshirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lami ishlar boshlab yuborildi.

Ayni paytda ushbu dasturlar muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. Sirdaryo tajribasi hududlariga keng targ'ib qilish, yuzma-yuz yurib aholining og'irini yengil qilish, yuzaga kelgan muammolarini o'sha joyda hal etish ko'zlangan.

Yurtimizdagi 56 mahallada "Obod xonadon", "Obod ko'cha", "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish ishlari boshlangan. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan buyurtmalar qabul qilinib, belgilangan mahallalarda uch oy davomida 50 nafardan ishsiz va band bo'lmagan fuqaroni haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish, ularning oylik ish haqini jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtirish, texnik vositalar bilan ta'minlash, asosiy vosita, mini uskunalar, inventarlarni ijara asosida berish choralarini ko'rilmoqda.

Bundan tashqari, barcha hududdagi bit-tadan mahallani kambag'allikdan chiqarishni maqsad qilganimiz. Ya'ni bu boradagi ishlar aniq manzilarga yo'naltirilgan holda, yangi tajriba, dasturlar asosida amalga oshirilyapti. Maqsadimiz belgilangan muddatlarida kerakli natijaga erishish va yangi tajribani barcha hududlarda keng joriy etishdan iborat.

Xitoy tajribasining samaradorligi nimada?

Bu borada xalqaro tajribalarni ham qo'llayapmiz. Asosiy hamkor davlatlarimizdan biri esa Xitoy. Joriy yil yozida jamg'armamiz delegatsiyasi ushbu mamlakatda bo'lib, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha Xitoy tajribasini o'rganib qaytdi. Ushbu tajribani yurtimizda tatbiq etish bo'yicha takliflar ham ishlab chiqilgan.

Gap shundaki, davlatimiz rahbarining joriy yil 15-mayda o'tkazilgan yig'ilishdagi topshiriqlari bilan Xitoy tajribasi asosida har bir viloyatda bitiddan tumanni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish belgilangan. Bunda, kambag'allik yuqori tumanlarda yo'l-transpord, elektr, aloqa va turizm infratuzilmasini yaxshilash, kichik va o'rta shaharlarni rivojlantirish, mahallalarni sanoatlashtirish vazifalari qo'yilgan.

Mazkur topshiriq ijrosini sifati va belgilangan muddatda ta'minlash maqsadida mutaxassislarimiz joyiga chiqqan holda o'rganishlar olib bordi. Jarayonlarda hokim



YANGI O'ZBEKISTON



www.yuz.uz

uz.uznews

yuz_official

yuz.uz news

SANOATLASHAYOTGAN TARMOQ: PAXTACHILIKDA INNOVATSION LOYIHALAR



Tohir QULIYEV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Paxtachilik kengashi ilmiy-tadqiqot organi — "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ bosh direktori, texnika fanlari doktori, professor

mos ravishda topshirildi. Paxtaning sifati sezilarli darajada yaxshilangani, hosildorlik gektariga o'rtacha 2,5-3 sentnerga oshgani tahlillarda ma'lum bo'ldi. Shuningdek, 2024-yil uchun urug'lik chigirtlarning unuvchanlik, tukdorlik, mexanik shikastlanganlik ko'rsatkichlari davlat standartlari talabiga mos holda tayyorlanishi nazoratga olindi. Paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari va klaster korxonalarini qiyin kelayotgan muammolardan biri — tuproq-iqlim sharoitiga mos navlarni tanlash masalasi o'z yechimini topdi. Ya'ni mutaxassis va olimlarimiz tomonidan har bir hududning iqlimi, tuproq sharoitiga mos navlar tanlab ekilishi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, xorijdan yuqori hosilli urug'lik chigirt olib kelib ekish ham muhim. Bu xususida kuni kecha Prezidentimiz raisligida paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash va hosildorlikni oshirish chora-tadbirlari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham alohida ta'kidlab o'tildi.

Davlatimiz rahbarining yuqoridagi qaroriga muvofiq, "Paxtasanoat ilmiy markazi" aksiyadorlik jamiyati Paxtachilik kengashining ilmiy-tadqiqot organi etib belgilangan. Shundan kelib chiqib, jamoamiz tomonidan paxtachilik bo'yicha yangi tizim joriy etilgan tumanlarda ekiladigan yangi istiqbolli va rayonlashtirilgan seleksiya navlari tolasini va chigirtning fizik hamda mexanik xususiyatlarini o'rganish maqsadida sinov va ilmiy tahlillar olib borilmoqda. Yangi istiqbolli seleksion navlarning sanoatboligini o'rganish maqsadida viloyatlardan paxta namunalari olib kelindi, tola chiqishi, mikroneyr ko'rsatkichi, 1000 dona chigirt og'irligi, geometrik o'lchamlari aniqlanmoqda.

Bugungi kunda paxtachilikda asosiy e'tibor g'ozaning turli stress omillariga

"Samara", "O'zFA-710", "Mehnat", "G'alaba", "Buxoro-11", "Buxoro-14", "Buxoro-15", "Sharq", "Sharofat", "Taraqiyot" kabi ko'plab yangi seleksiya navlarining tola uzunligi 4-tippa mansubligi ma'lum bo'ldi. Bu esa yaxshi ko'rsatkich.

Markazimizda ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan 3 ta innovatsion loyiha bo'yicha ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Birinchisi, "Yangi, istiqbolli va rayonlashtirilgan navlarning sanoatboligini o'rganish asosida ulardan olinadigan urug'lik chigirtlarni tayyorlovchi texnologik uskunalarning sanoat namunasi yaratish" deb nomlangan bo'lib, uning qishloq xo'jaligida o'rni alohida. Chunki hozir urug'lik chigirtni dorilashda uni tayyorlash usullariga (tukli va tuksiylanirigan) javob bera oladigan universal mashina namunasi ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Ya'ni jarayon ko'p vaqt hamda mablag' talab etadi. Olimlarimiz tomonidan yaratilgan yangi turdagi avtomatlashtirilgan uskunaga esa urug'likni bir me'yorda dorilaydi. Uskunaga shu oyda to'liq sinovdan o'tkaziladi.

Ayni paytda yaratilgan universal dorilash mashinasiga patent olish uchun kerakli hujjatlar intellektual mulk agentligiga topshirilgan. Aytib o'tganimizdek, mashina universal, resurstejamon. Texnik-iqtisodiy jihatdan samarali. Odatiy jarayonga ketadigan mablag'ni 15 foiz tejaydi. Urug'lik chigirtlar, ayniqsa, tuklisini dorilangandan keyin qorishtirish jarayonida sifat ancha yaxshilanadi. Chigirt yuzasiga dori qoplash nisbatlari 100 foizgacha yetadi.

Yangi universal dorilash mashinasi amaliyotga tatbiq etilishi natijasida jarayon bir maromda kechadi va tayyorlangan urug'lik chigirt davlat standartlari talablariga to'liq mos keladi.



tabiyyi bardoshli, hosildor, tola sifati yuqori hamda inson salomatligi uchun bezarar bo'lgan yangi navlarini yaratishga qaratilgan.

Shuningdek, jamoamiz joriy yilda yana qo'shimcha 4 ta ilmiy innovatsion loyiha ishlab chiqdi. Shulardan biri — "AVXS-01" avtomatlashtirilgan paxtaning namligini aniqlash uskunasi pabriki qabul qilinayotgan paxtaning namligini tezkor usulda aniqlashda qo'l keladi. Ya'ni u tufayli paxtaning konditsion massasini hisoblashda namlik darajasi aniqlanadi, jarayonda inson omilidan voz kechiladi. Paxtani qabul qilish, qayta ishlash va mahsulot ishlab chiqarishda elektron hisobot yuritishga erishiladi.

"PAN-1" asbobi esa qabul qilingan paxtaning sanoat navini tezkor usulda aniqlash uchun mo'ljallangan, odatiy qurilmalarni ishlatishga ehtiyoj qolmaydi. Bu orqali paxta navini aniqlash vaqtini 20-25 daqiqadan 2-3 daqiqaga kamaytiraymiz. Terim mavsumida paxta tashish texnikalariga talab qanchalik katta ekanini inobatga olib, bu fermerlar uchun ayni muddaodir.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida qishloq xo'jaligiga daxldor bir qator maqsadlar ko'zlangan. Hosildorlik ko'rsatkichlarini paxta bo'yicha o'rtacha 45-50 sentnerga yetkazish, har bir tumanda agrar sohadagi ilm va innovatsiyalar, yangi yondashuvlar, zamonaviy agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi markazlarni tashkil qilish shular sirasidan. Ko'rilayotgan chora-tadbirlar, ilm ahlining bugungi sa'y-harakatlari esa ana shu maqsadlar uchun asqotishi bilan ahamiyatlidir.



OLIV TA'LIM

TRANSFORMATSİYALASHUV JARAYONI o'qitish sifatiga qanday ta'sir qiladi?



Fayzullo ERNAZAROV, Toshkent davlat pedagogika universiteti prorektori va xalqaro mutaxassislik bo'yicha mutaxassislik professor

Oliy ta'lim har qanday jamiyat rivojida muhim rol o'ynaydi. Shu bois, birinchi navbatda, OTMlarni transformatsiya qilmasdan, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy tarmoqlarini haqiqiy ma'noda yangilab bo'lmaydi. Chunki bunday tarmoqlarning transformatsiyalashuvi uchun xalqaro talablar asosida yuqori saviyadagi bilimga ega bo'lgan, zamonaviy fikrlaydigan va jamiyatda inson manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan raqobatbardosh mutaxassislar o'rni nihoyatda katta. Tabiiyki, bunday mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalari zimmasida bo'lib, shu sababli ularning transformatsiyalashuvi alohida ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'limda transformatsiyalashuv keng tushuncha, u asosan, xalqaro standartlar va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan yuqori darajada foydalanish orqali o'qitish sifati va raqobatbardoshligini oshirishda namoyon bo'ladi. Sohadagi transformatsiyalashuv tizimida band bo'lgan barcha xodimlar, birinchi navbatda, professor-o'qituvchilar, shu bilan birga, ta'lim xizmatdalaridan foydalanuvchilar — talabalar, ilmiy izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar va boshqalar uchun yuqori qiymat, ya'ni "value" yaratish maqsad qiladi. "Value" oliy ta'lim tizimining barcha ishtirokchisi uchun yaratiladigan, ularning manfaati, qiziqish hamda ehtiyojini qondira oladigan shart-sharoit hamda insoniyatlarni o'zida aks ettiradi. Bugun aynan shunday "value" yaratilgan OTMlar ilg'or 1000 talik reytinglaridan o'rin olishga muvaffaq bo'lmoqda.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mamlakatimiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash sohasida yetakchi OTM. Uning jahon miqosidagi nufuzini oshirish universitet jamoasi oldida turgan dolzarb va mas'uliyatli vazifadir. Bu masalaga davlat darajasida e'tibor berilayotganining o'zi universiteti transformatsiya qilish nafaqat OTM jamoasi, balki mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy hayoti uchun qanchalik darajada muhim ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

Prezidentimizning 2022-yil 21-iyundagi "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ilova tarzida 2022-2026-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetini transformatsiya qilish va kompleks rivojlantirish dasturi hamda 2023-2026-yillarda universitetni rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Ular transformatsiya jarayonida universitet jamoasi oldida turgan vazifalarning samarali va sifati amalga oshirilishi uchun dasturlamal bo'lib kelmog'ida. Buning natijasida universitetni transformatsiya qilish borasida qator natijalarga erishildi.

Jumladan, universitetda pedagogik ta'lim va amaliyot bo'limi faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu nega kerak edi? Jahon tajribasiga ko'ra, har qanday oliy ta'lim muassasasi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun amaliyot bilan uzviy hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi (masalan, Yaponiyaning Vaseda universitetida shunga o'xshash bo'lim mashhur kompaniyalar, jumladan, "Toyota",

Transformatsiyalashuv mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy tarmoqlarining sifat jihatidan hamda jahon standartlari asosida rivojiga qaratilgan jarayon. So'nggi yillarda u Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda muhim yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Nomidan ko'rinib turganidek, transformatsiyalashuv muayyan darajada zamonaviy ichki va tashqi bozor talablariga javob bermay qolgan tizimdan ikkinchi, ya'ni zamonaviy bozordagi har qanday o'zgarishlarga tekzori bilan, samarali moslasha oladigan tizimga o'tish ma'nosini bildiradi. Boshqacha aytganda, xorijiy, xususan, rivojlangan davlatlar tajribasidan amalda foydalanish transformatsiyalashuv jarayoni oldida turgan eng muhim vazifalardan. Bu transformatsiyalashuvning globallashtirish kabi jarayonlar bilan chambarchas bog'liqligidan dalolat beradi.

"Nissan" va boshqalarning vakillari hamda universitet talabalarini o'rtasida muntazam uchrashuvlar tashkil etib turadi. Buning natijasida oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilari o'z mutaxassisligi bo'yicha raqobatbardosh ish o'rinlari topadi. Universitetimizda tashkil etilgan yangi bo'lim aynan shunday maqsad yo'lida faoliyat yuritish bilan birga pedagogik ta'lim sifati amaliyot talablaridan kelib chiqqan holda qat'iy va muntazam oshirib borish bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, ushbu bo'lim universitetni transformatsiya qilishda markaziy tuzilma sifatida e'tirof etilayotir. U universitetdagi barcha mutaxassis-

2026-yilgacha xorijlik yetakchi professor-o'qituvchilarni universitet faoliyatining boshqa jabhalariga ham faol jalb etish yo'lida izlanish olib borilmoqda. Zero, bunday pedagoglar dars o'tishdagi innovatsion yondashuvi, erkin va ijodiy fikrlash usullari, xorijiy nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan aloqasi tufayli universitet transformatsiyalashuvining sifati amalga oshirishga muhim turki beradi.

Oliy ta'lim muassasamizda 2-4-bosqich talabalar uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida yo'lga qo'yilgan. Unga ko'ra, talabalar 4 kun auditoriyada tahsil oladi, qolgan 2 kun maktabgacha va umumiy o'rta



liklar bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlash tizimini amaliyot talablaridan kelib chiqqan holda sifati va innovatsion tashkil etish jarayonini muvofiqlashtirib boradi.

Universitet o'quv jarayoniga xorijiy OTMlardan yetakchi professor-o'qituvchilar jalb etilishi borasida muayyan natijalarga

talim muassasalarida amaliyotda bo'ladi. Mazkur tartib joriy etilgan talabalar mu-taxassisligi bo'yicha bilimlarni puxta egallash imkoniyatini yaratmoqda. Shu bilan birga, dunyoqarashini kengaytirish, mashg'ulotlardagi ilmiy-amaliy bahs-munozaralarda faol ishtirok etish, bir-biridan qiziqarli loyihalarni ishlab chiqish va taqdimot qilish mahoratini rivojlantirmoqda. Tabiiyki, talabalarimiz bunday faolligi professor-o'qituvchilarning ham o'z ustida ko'proq izlanish, darslarini qiziqarli, ruhlantiruvchi va amaliy tashkil etishi uchun intilishga zamin bo'ladi. O'zaro ijobiy ta'sir natijasida yuzaga kelaqan bunday samara universitet transformatsiyalashuvining sifati amalga oshirishni ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lishi mumkin.

Birinchi 1000 talikka kirgan xorijiy OTMlar bilan hamkorlik qilish maqsadida "Supportscience" tashkiloti bilan aloqa o'rnatildi. Universitetning Times Higher Education (THE) yoki Quacquarelli Symonds (QS) xalqaro reyting agentliklarining sohavii, mintaqaviy yoxud tematik reytinglariga kirishini ta'minlash uchun ularning talabi asosida OTM holati tahlil qilindi. Shuningdek, boshqaruv tizimini ISO-21001 (Educational organizations — Management systems for educational organizations) talablari asosida tashkil etish uchun universitet faoliyatini xalqaro tajribaga ega ekspertlar birlamchi tahlil qilindi. Oliyoghimiz QS Osiyo universitetlari reytingida yetakchi 1000 talikka kirdi, qolaversa, barqaror rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirishda OTMlar ta'sirini baholovchi THE Impact Rankings xalqaro reytingidan joy oldi. Iqtidorli talabalar-ni maqsadli tayyorlov dasturi bo'yicha o'qitish yuzasidan "Oltin xazira" guruhlarni tashkil etish tartibi loyihasi ishlab chiqildi hamda to'rt yo'nalish bo'yicha o'rta qurush tashkil etildi.

Universitet jamoasi transformatsiyalashuv bo'yicha mazkur natijalar bilan cheklanmasdan, qator muhim vazifalarni bajarish yo'lida hamijhatlik bilan harakat qilmoqda. Jumladan, 2026-yilgacha universitetda tayyorlanadigan barcha pedagogik mutaxassislik bo'yicha xalqaro reytingda yetakchi 500 talikka kirgan xorijiy OTMlar hamkorligida qo'shimcha ta'lim dasturlari tashkil etish, universitet transformatsiyasining ahamiyatini targ'ib etish, xalqaro talabarga to'la mos, zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan yuqori darajada ta'minlangan, raqobatbardosh va jozibador ta'lim infratuzilmasini yaratish galdagi vazifalardan.

2026-yilga qadar "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror ijrosi to'liq ta'minlanishiga erishish uning global ta'lim bozoridaq mavqei oshirishga olib kela-di. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizdagi o'qitish tizimi xalqaro talabalar asosida rivojlanishiga kuchli turki bo'ladi.



Italiyadagi hamyurtimiz:

OTA UYIM TOKCHALARI — MENING VATANIM, O'ZBEKISTONIM!

O'rtayer dengizi gavhariga mengzaladigan Italiyaga borishni orzu qilmaydigan kishilar kamdan-kam bo'lsa kerak. Zero, bu iqtisodiy yirik davlat tarix va boy madaniyatni o'zida mujassam etgani bilan ham diqqatga sazovor. Italiyaning 60 millionga yaqin aholisi orasida bugun munosib o'rin topayotgan o'zbekistonliklar ham borligi barchamizga g'urur bag'ishlaydi.

Shu yil sentabr oyida "Giornale Diplomatico" kundalik onlayn gazetasida Italiyada O'zbekiston madaniyat markazi ochilishi tafsilotlariga bag'ishlangan maqola e'lon qilindi. Unda Italiyada birinchi bo'lib ochilgan ushbu markaz O'zbekiston faxriy konsulligi tezkor shtabi joylashgan "La Leopoldina"ning yangi binosi yonida ish boshlagani aytilgan. Madaniyat markaziga buyuk ajdodimiz Mirzo Ulug'bek nomi berildi.

Markazni ochish g'oyasi O'zbekistonning faxriy konsuli Leonardo Komuchchi hamda samarqandlik ayolga tegishli ekanini bizda xorijdagi vatandoshimiz bilan yaqindan tashish istagini uyg'otdi.

Dubiyadan uyg'ongan qiziqish

39 yoshli Komila Qirg'izova Samarqand viloyati Jomboy tumanida oddiy ishchi oilasida tug'ilgan. Yoshligida qaysidir italyan filmi tomosha qiladi. Film dublyajida bir necha soniyali kechikish bo'lib, qizcha sof italyanchani eshitib qoladi va bu til unga juda yoqadi. O'shandayoq italyan tiliga mehri tushgan Komila 2000-yilda maktabni tamomlab, Samarqand davlat chet tillar institutiga o'qishga kiradi. Institutda ikki yil italyan tili va madaniyatidan ta'lim olishdan tashqari, sayyohlarga gid-tarjimonlik ham qildi. Zero, u italyanchani yaxshi bilibgina qolmay, tarjimonlikni puxta egallash, xalqlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishga hissa qo'shishni birlamchi maqsad qilgandi.

Shu maqsadda 2008-yilda Italiyaning Siyena shahri universiteti (Universita per Stranieri di Siena) tarjimonlik va madaniyatlararo mediatorlik fakulteti magistraturasini tamomladi.

Ayni paytda qahramonimiz og'zaki sinxon va ketma-ket tarjima sohasida Italiya universitetlaridan birida malaka oshiriyapti. U O'zbekistonda aynan o'zbek va italyan tillari tarjimasini masalasi, bu boradagi farq va o'xshashliklar yo'nalishida doktoranturada ham o'qishni niyat qilgan. Komilaning Italiyadagi o'zbek madaniyat markazi rahbari ekanidan tashqari bu yerda birinchi italyan-o'zbek tillari tarjimoni va mediator sifatida faoliyat yuritayotgani, zamonaviy tilda aytganda, filancer tarjimonlik qilayotganiga ham o'ziga yarasha sabab bor.

Tez yordam sabab boshlangan yangi faoliyat

Nufuzli tashkilotda tarjimon sifatida bir necha yil ishlar ekan, faqat bir sohada tarjima bilan cheklanayotgani Komilani qoniqtirmasdi. Ayniqsa, O'zbekiston va Italiya o'rtasida turli sohada tobora kengayib borayotgan hamkorlik uni bir yo'nalishda qotib qolmaslikka undayverdi. Taqdir taqozosi bilan bir kuni o'sha yerda

bir yurtdoshimizning sog'lig'i yomonlashib, tez tibbiy yordamga muhtoj bo'lib qoladi. Tabiiyki, unga zudlik bilan tarjimon kerak bo'ladi. Shifoxonadan Komilaga aloqa chiqishadi. Biroq ishxonasidan unga telefon orqali tarjima qilishga ruxsat berishmaydi. U qanday ishxonadan chiqib ketgani-yu, masofadan turib, yurtdoshimizga xolisona yordam berganini bilmay qoldi. Shu voqeadan keyin bu kabi holatlar yana bo'lishi mumkinligini o'ylab, filancer tarjimon bo'lib ishlashni ma'qul ko'rdi.

— Bu yurtdan uzoqda yashasam ham unga yaqin bo'lishga, ko'plab sohalarda o'rnatilayotgan aloqalarni mustahkamlashga hissa qo'shishimga imkon bermoqda, — deydi u. — Italiyada chet elliklarga tibbiyot sohasida o'z tillarida xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan va 1 yildan beri ushbu tillar qatoriga o'zbek tili ham qo'shilishiga sababchi bo'lganidan baxtiyorman. Endi yurtdoshlarimizga ham o'z ona tilimizda tez yordam ko'rsatishiga zamin yaratildi, bu esa kerakli muolajalar o'z vaqtda bajarilishiga xizmat qiladi.

Komilaga O'zbekistonda sayyohlik salohiyatini targ'ib qilish borasida takliflar bo'lgan. Italiyadagi elchixonamiz uni rasmiy tarjimonlikka olgan. O'zbekiston rasmiy delegatsiyalariga Italiya bo'yab tarjimonlik qilish uning ikki davlat hamkorligiga ko'proq ko'maklashishini ta'minlaydi.



Yurtimizdan oktabr oyida Italiyaga tashrif buyurgan delegatsiyalarga Florensiya va Rimda ko'rsatgan tarjimonlik xizmatlari uni tanlagan ishiga yanada ruhlantirib yubordi.

Vatandoshimiz italyan-o'zbek tarjimalari masalasida malakali kadrlar tayyorlash kerak, deb hisoblaydi. Bu borada ham bir necha loyihaga ustida ishlamayapti.

— Tillarimizning grammatik jihatlari, madaniyatlarimiz o'rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda, avvalo, lug'atlar yaratish kerak. Qolaversa, oliy ta'limda malakali mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladigan amaliy dasturlar ishlab chiqqan bo'ldim, — deydi Komila.



Italiyalarda ayrim an'analarni o'rnatish

O'zaro suhbatlarda xorijdagi vatandoshlarimiz o'zlarini yashayotgan davlat, u yerining xalqi bilan bizzing hayotimiz o'rtasidagi tafovutlarga qiziqamiz. Italiyaliklar o'ziga xos madaniyati, opera san'ati, teatr sohasida ma'lum mashhur. Ular bilan birga yashaganlar esa biz bilmagan loqal bir jihatni kuzatishgani ayon bo'ladi. Komila ham italyanlarning biznikiga o'xshash qirralarini aytib berdi:

— Yevropada yashovchi boshqa millatlar kabi italyanlar bilan ham o'rtamizda yashash tarzimiz, dunyoqarashimiz, tarbiyamiz va rejalarimizni amalga oshirishda belgilangan ustuvorliklarda sezilarli farq bor. Lekin ularning tarixiga nazar salsak, asrlar davomida musulmon xalqlar bilan mavjud bordi-keldilar turli an'ana va madaniyatlar qorishishiga sabab bo'lganini ko'ramiz. Masalan, Italiya janubidagi Palermo shahridagi juda go'zal va shohona qurilgan masjid menga qandaydir



xush kayfiyat beradi. Masjid tarixini bilmayman, ammo uni har ko'rganimda, O'zbekistonimiz ko'z oldimga keladi. Yevropadagi boshqa xalqlarga qaraganda, italyanlarning ochiqko'ngilligi, mehmondo'stligi bizning an'analarni eslatadi. Bola tarbiyasiga beradigan alohida e'tibori ham ota-bobolarimizning bu boradagi mas'uliyatini, qadriyatlarimizni eslatadi.

Har gal O'zbekiston haqida o'ylasam, xayolam Vatanga borsam, eng avvalo, ota uyimning tokchalarini ko'raman. Ular mening Vatanim, tug'ilib o'sgan, kindik qonim to'k'lgan yurtimdan mangu xotirlar. Qishloqlarimizning keng dalalari tushlarimga kiradi.

Farzandlarimga ona tilimizda she'r yodlatganimda, kitob mutolaasida, mehmonlarga o'zbek taomlarini tortiq qilganimda, tariximiz, adabiyotimiz, qadriyatlarimiz haqida g'ururlanib gapirganimda yurt sog'inchi qalbimni o'rtaydi.

Milliyatimiz men uchun yurt sarhadlaridan tashqari turib ham boshqa xalqlar oldida, turli tadbirlarda emin-erkin men o'zbekman, o'zbekistonlikman, deb aytishimizda namoyon bo'ladi.

Rimda Navro'z, Florensiyada Mustaqillik bayramlarimiz o'tkaziladi

"Vatandosh" fondi va elchixonamiz amaliy yordami bilan bir necha yillik harakatlardan so'ng Italiyada ham yurtdoshlarimizni yig'ib,

o'zbek milliy va madaniy markazini ochdik. Shu o'rinda "Vatandosh" fondi rahbari Odiljon Sattorov va fond jamoasiga alohida minnatdorligimni bildirib ketsam. Chunki ular Italiyaning byurokratik tizimi murakkabliklarini yengib, markazimizni ochish va binomizga ko'rk berishda nihoyatda katta yordam ko'rsatdi. Shu ma'noda yurtimizda "Vatandosh" fondi tashkil etilganidan juda mamnunman. Chet eldagi yurtdoshlarimizga alohida e'tibor berilishi, ularning yurt hayotidagi ishtiroklarini ta'minlashga qaratilgan bu harakatni ayni paytda juda muhim qadam deb hisoblayman. Zero, xorijdagi vatandoshlar ham salohiyati, yurtga muhabbati bilan Vatanimiz rivojiga sezilarli hissa qo'shishi muqarrar. Xususan, biz, Italiyadagi o'zbekistonliklar ko'plab loyihalar ustida ishlamaymiz, yana yangi loyihalar borasida takliflar tushyapti. Ularni amalga oshirishda "Vatandosh" fondi imkon qadar ko'maklashishiga ishonaman.

Markazimiz Italiyaning Chezena shahrida xalqaro festivalda yurtimiz nomidan ishtirok etganida, to'g'risi, ko'zimga yosh keldi. Taomlarimiz shohi bo'lmish palovni tayyorlash bo'yicha mahorat darsi tashkilotlaridiki. Milliy qo'shiqlar, raqslar, hunarmandlik namunalari vositasida o'ziga xosligimizni targ'ib qildik. Mehmonlarga O'zbekiston, uning turistik salohiyati haqida gapirib, ularda vatanimizga qiziqish uyg'onganida jannatmonand yurtimizni qanchalar sevimimizni yana bir bor his qildik.

Ishtirokimiz tashkilotchilarga g'oyat ma'qul bo'lib, yanagi yil Genuya shahrida bo'lib o'tadigan, butun Yevropada mashhur "Oshxona orqali madaniyat targ'iboti" festivaliga taklif qilindi. Elchixonamiz bilan hamkorlikda Italiyada yashovchi vatandoshlarimiz va xalqimizning italyan millatiga mansub do'stlarini jamlab, Rim shahrida Navro'z va Florensiyada Mustaqillik bayramini nishonlash yuzasidan tashkiliy ishlarini boshladik. Shuningdek, O'zbekistonning Florensiyadagi faxriy konsulligiga 2024-yilda Uffitsi galereyasiga Savskiy muzeyi "tashrifini" tashkilotchilarga ko'maklashaymiz. Eng quvonarlisi, juda ko'p festivallarda O'zbekiston sharafiga himoya qilish borasida takliflar olganimiz va o'zimiz ham takliflar kiritmoqdamiz.

O'zbek ertaklaridan italyan bolalari ham bahramand bo'ladi

Germaniyada yashayotgan vatandoshimiz Sitora Usmonova bilan gaplashganimizda "Italiyadagi o'zbek madaniy markazi rahbari Komila Qirg'izova menga "Quyoshli tong"ni Italiyada ham tarjima qilib nashr etishni taklif qildi", degan edi. Buni qarangi, Sitora Usmonova singari Komila Qirg'izova ham o'ziga elda yashayotgan o'zbek bolalarining ma'naviy boyligini oshirishni o'ylab yuradi. Komila tarjima qilgan, maktab yoshidagi bolalar uchun ingliz-o'zbek va o'zbek-ingliz tillari lug'ati nashr arafasida. Bundan tashqari, o'zbek ertaklari to'plamining italyan tiliga tarjimasini va nashri ustida mehnat qilayotgan vatandoshimiz to'plamini italyan maktablari va bog'chalarida keng targ'ib etishni maqsad qilgan.

O'zbek an'analari va mustaqilligimiz haqidagi qator maqolalari to'plamlarda va gazetalarda chop etilgan. Darvoqe, Komilaning kovid bo'yicha xalqaro ilmiy izlanishlardan o'zbek tiliga tarjimalari mamlakatimizda keng qo'llanildi. Ayni paytda ham bu boradagi yangi tarjimalar va maqolalar ustida ishlamoqda.

Qahramonimizning o'z ona Vatani haqidagi mana bu so'zlari hikoyamizni yakunlaydi:

— Eng avvalo, oxirgi yillardagi jiboy o'zgarishlardan juda mamnunman. Tabiiyki, har bitta yangilikdan internet orqali xabarдор bo'lib boraman. Ushbu jiboy islohotlar yurtimizni dunyoga yanada ochilishiga, O'zbekiston degan nomning tobora tanilishiga xizmat qilyapti.

Munajat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



ASL ERKINLIK ma'naviy komillikdir

YOXUD EZGULIK YO'LI KITOBXONLIK DAN BOSHLANADI

"Yaqinda O'zbekiston Prezidenti AQSHga rasmiy safari davomida Nyu-Yorkda Amerikada istiqomat qilayotgan bir guruh vatandoshlarimiz bilan uchrashdi. Fursatdan foydalanib, davlatimiz rahbariga "Yuksaklik sari tasodif bo'lmagan 100 uchrashuv" nomli kitobimni sovg'a qildim. Aslida, Prezidentimiz bu kitobning eng birinchi qahramoni va men kitobda davlatimiz rahbari bilan 2018-yil may oyida Vashingtonda bo'lib o'tgan uchrashuv taassurotlarini uch tilda yozganman", deydi huquqshunos, aktyor va bloger Otabek Mahkamov.

— Sizni ko'pchilik ashaddiy kitobxon sifatida tanidi. Kitobxon sifatida qarashlaringiz biz uchun qiziq...

— Inson huquqlarining taniqli kurashchisi Frederik Duglas aytganidek, "kitob o'qishni o'rganishingiz bilan bir umr erkinlikka erishasiz". Dunyoning ko'plab mamlakatlari kezb amin bo'ldimki, asl erkinlik ma'naviy komillikdir. Hozirgacha 50 dan ortiq mamlakatlarda sayohat qildim. Safarlarimda, hatto bir kunlik bo'lsa ham, avvalo, masjid va kutubxonasiga borishim shart, vaqt qolsagina boshqa joylarga boraman. Men negadir elektron kitob o'qishga judayam qiyinalaman. Kitobni qo'lga olganimda hidini sezishim, o'qigan varaqalarimni hisoblab borishim, bir o'tirishda o'qigan betlarimni ko'rib zavqlanishim kerak. Meni quvontirgani, sevimli yozuvchimiz Abdulla Qodiriy tavalludining 125 yilligi arafasida "O'tkan kunlar" romani amerikalik taniqli tarjimon va tadqiqotchi Mark Edvard Riz tomonidan ilk bor bevosita o'zbek tilidan inglizchaga o'girildi va AQSHda chop etildi. 2019-yil 27-dekabrda O'zbekistonning AQSHdagi elchixonasida ushbu kitob taqdimoti o'tkazildi. Kitobning ilk nusxalari AQSHdagi davlat tashkilotlari, yetakchi ta'lim muassasalari, diplomatik vakolatxonalariga tarqatildi, mamlakatning eng yirik Kongress kutubxonasi katalogiga kiritildi. Shuningdek, bu kutubxonada Burxoniddin Marg'inoniy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi bobolarimizning G'arb tamaddunida o'ziga xos o'rin tutgan asarlarini mavjudligi menda faxr uyg'otadi.

— Kelgusida qaysi manzil yoki go'shaga borishni orzu qiliasiz?

— Hozirgacha bormagan, lekin borishni judayam orzu qiladigan bir kutubxona bor. Bu — 2000-yil oldin yoqib yuborilgan Iskandariya kutubxonasi. Uning o'rinda 2002-yilda quyosh shaklida yangi kutubxona barpo etilgan, o'n milliondan ortiq kitob saqlanadi. Iskandariya kutubxonasi Arximed, Evklid va Gippokrat kabi daholar asarlarining dunyodagi yagona ombori bo'lib kelgan. Safarlarda ko'pincha kitob hamroh bo'ladi. Zero, yo'lda hayotga sovuq qaraydigan va ezgulik nuridan behovar ayrim insonlar bilan suhbatdosh bo'lishni istamayman. Samolyotda yoki poyezdda turli tilda so'zlashuvchi insonlar mehrga ehtiyojmand ekanini his qilaman. Mehr chashmasi qaynagan lahzalarda tillar lol qoladi, nigohlar, qalblar so'zlashadi. Qaniydi bu haqiqatni hamma his qila olganida.

— Balki shu iztiroblaringiz sizni kitob yozishga undagandir. Qahramonlaringizni qanday tanlaysiz?

— "Yuksaklik sari tasodif bo'lmagan 100 uchrashuv" kitobimni ikki yarim yil davomida yozdim. Kitob 100 nafar qahramon faoliyat yurituvchi 16 ta sohaga bo'linadi. Ular orasida O'zbekistonda keng islohotlar qilayotgan, xalqimizni kitobsevar millatga aylantirishga intilayotgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, davlatimiz madhiyasining so'zini yozgan shoir, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov, Markaziy Osiyo xalqlarining har biriga tug'ishgan jigari qadrdon, yetti umlati xalq artisti Farrux Zokirov singari vatandoshlarimiz bor. Qahramonlarim bilan turli mamlakatlarda o'n sakkiz yil davomida uchrashganman. Butun bir avlodni kitob o'qishga "majbur qilgan", mutolaani "vaqt mashinasi" deb bilgan Tohir Malikdek yozuvchimiz faxrlanishga arziqli qahramonlarimdan biri bo'lgan.

— Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda taniqli o'zbek shoiri Abdullal Qutbiddinning "Nayson" kitobini bir yosh shoir yigit kim oshdi savdosida bir yarim million so'mga sotdi. Bu ham yurtimizda kitobning qadri yana yuk-salayotganidan darakdek...

— 1994-yilda Bill Geyts Leonardo da Vinchining "Lester Kodeksi" kitobini 30,8 million dollarga sotib oladi va bu kitob hozirgacha auksionda sotilgan eng qimmat kitobdir. U kitobdagi tasvirlardan Windows 98 dasturining ekran va fon qismini bezashda foydalanagan. Kaminaning kitobi ham auksionlarda sotilayotganidan faxrlanaman.

Kitobim onamga bag'ishlangan. U 15 yil oldin 49 yoshida onkologik kasallikdan vafot etgan. Shundan beri O'zbekistonda aynan onkologik kasallik bilan og'rikan, og'ir ahvolda, qiyin sharoitda qolgan oilalar bolalariga qo'limdan kelganicha dori-darmon masalasida yordam berishga harakat qilaman. Shaxsiy mablag'im yetmay qolganida homiylar ko'magida, turli aksiyalar orqali ularni qo'llab-quvvatlashga intilaman.

Dunyoda bunday amallar bilan shug'ullanayotgan insonlar ko'p va ularning aksariyati ashaddiy kitobxon bo'lgani uchun ko'nglida ezgulik gulxani yonib turadi. Demak, ezgulik yo'li kitobxonlikdan boshlanadi. Bu yo'lning keng va ravon bo'lishi o'qimishlilar qanchalik ko'p bo'lishiga bog'liq.

Jurnalist Dildora MARDIYEVA suhbatlashdi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1146. 43313 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzili: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15

Qabulkona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05